

## YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 175 (1236), 2024-yil 30-avgust, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## ULUG‘ AYYOM ARAFASIDA FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN YIRIK BUNYODKORLIK LOYIHALARI XALQIMIZGA MUNOSIB TUHFA

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi arafasida muhim loyihalar, ta’lim va tibbiyot maskanlari, infratuzilma inshootlari foydalanishga topshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-avgust kuni poytaxtimizdagi shunday bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.



Davlatimiz rahbari 2021-yilda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining eski binosini borib ko‘rgan,

sohada sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Ko‘p o‘tmay, “Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada

takomillashtirish to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi.

Sohada davolash samaradorligini oshirish uchun ko‘p ishlar qilinmoqda. Xususan,

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi alohida muassasa sifatida ajratildi. Onkologik shifoxonalar uchun qo‘shimcha 22 ta nur terapiyasi uskunasi olib kelindi. Kimyo terapiyasi vositalariga ajratilayotgan mablag‘ 11 barobar oshirilib, 13 million dollarga yetdi. 250 ga yaqin yangi tekshirish va davolash usullari viloyat va tuman darajasiga tushirildi.

Prezident qarorida Respublika onkologiya markazi uchun yangi majmua qurilishi ham belgilangan edi. Uning loyihasi Janubiy Koreyaning shu sohada klinikalari tajribasi asosida ishlab chiqildi. Uch yil davomida puxta ish olib borilib, Toshkent tibbiyot akademiyasi yonidagi 5 gektardan ziyod maydonda zamonaviy shifoxona barpo etildi.

Yangi majmua 9 ta inshootdan iborat bo‘lib, asosiy binolar 8 qavatli. Ularda shifokor va bemorlar uchun kerakli sharoitlar inobatga olingan. Birinchi qavatda poliklinika va tashxis uskunalar, ikkinchi qavatda laboratoriya, stasionar, reanimatsiya va jarrohlik xonalari, yuqori qavatlarida palatalar joylashgan. Yer osti qismida radioterapiya, yadro tibbiyoti bo‘limi, xo‘jalik xonalari bor.

Avvalgi shifoxona 370 o‘rinli edi. Yangi markazda 650 ta stasionar va 80 ta kunduzgi o‘rinlar tashkil etildi. Shuningdek, bir kunda 500 nafar bemor ambulator sharoitda davolanishi mumkin.

Davlatimiz rahbari markazdagi qulaylik va imkoniyatlar bilan tanishdi.

— Biz ta’lim va tibbiyotga alohida e’tibor beryapmiz. Chunki odamlar bilimli bo‘lib, sog‘lom bo‘lsa, o‘z yo‘lini topadi. Bu markaz ham shunday ishlardan biri. Bu loyihaga 1,2 trillion so‘m ajratib, “noldan” quridik. Barcha

onkologiya shifoxonalarini jihozlashga 80 million dollar yo‘naltirildi. Endigi asosiy vazifa — xodimlarni o‘qitib olish, samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Markazda Yevropa va AQSH standartlari asosida tashkil etilgan 17 ta yangi klinik bo‘lim, 18 ta jarrohlik xonasi, 42 ta reanimatsiya va intensiv terapiya xonalari tashkil etilgan. Ular jahon tibbiyotida qo‘llanilayotgan eng so‘nggi texnikalar bilan jihozlandi.

Masalan, Siemens kompaniyasining MAGNETOM Altea rusumli magnitli tomografi sun‘iy intellektdan foydalanib, ish jarayonini avtomatlashtiradi. Fuji kompaniyasining Senaria kompyuter tomografi kam dozali nurlanish va yuqori sifatli tasvir bilan bexato tashxis qo‘yadi. Shuningdek, 128 va 256 o‘lchamli multispiral tomograflar juda yuqqa kesimlarda eng kichik o‘smalarni ham aniqlash imkonini beradi. Bular avval qo‘llanilganidan 8-16 barobar kuchli.

Bunday zamonaviy texnikalarni ishlatish uchun yuzga yaqin mutaxassis 8 ta xorijiy davlatda malaka oshirib qaytdi. Yurtimiz bo‘ylab 1 ming 200 nafar onkolog chet elda o‘qitiladi.

Jarrohlik bo‘limida yiliga 6 mingga yuqori texnologik amaliyotlar o‘tkazish imkoniyati bor. Jumladan, juda dolzarb bo‘lgan suyak ko‘migi transplantatsiyasi yo‘lga qo‘yiladi. Yangi uskunalar yordamida ko‘z, halqum va qizilo‘ngach qismi o‘smalarini kesmasdan olib tashlash mumkin. Qovuq o‘smalari kam invaziv usulda bartaraf etiladi. Bularning samarasida bemorlar tezroq tuzalib, 3-5 kunda uyiga qaytishi mumkin.

Intensiv terapiya bo‘limida har bir yotoq o‘rni yurak monitorlari, o‘pkan

sun‘iy shamollatish moslamalari va boshqa zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan.

Nur bilan davolash uchun ilk bor yadroviy tibbiyot bo‘limi ishga tushirilmoqda. U 9 ta bunkerdan iborat bo‘lib, birida to‘xtalishlar yuz bergan taqdirda ham boshqalariga o‘tkazilishi natijasida muolaja uzluksizligi ta’minlanadi. Chiziqli tezlatkichlarda nur bilan davolashning VMAT, SMAT kabi yangi usullari tatbiq qilinadi.

Ambulator kimyo terapiya 72 nafar bemorga mo‘ljallangan. Yangi infuzomat uskunalari olib kelingan natijasida bu davo osonlashadi va tezlashadi.

Prezident markazda ish jarayonini raqamlashtirish, bemorlarga qulayliklarni oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

— Eng asosiy topshiriq — raqamlashtirish. Odamlar sarson bo‘lmasin, navbatda turib qiynalmasin. Bu markaz faqat Toshkent uchun emas, uni hududlardagi 15 ta shifoxona bilan shunday bog‘lash kerakki, bemorlar o‘zining kelish vaqtini, doktorini oldindan bilsin. Buning uchun sun‘iy intellektni kengaytirib, inson omilini kamaytirish kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Markaz o‘zining hududlardagi filiallari bilan yagona elektron platformaga ulanadi va respublikada “kanser-registr” tizimi ishga tushiriladi. Buning natijasida nazoratda turgan barcha onkologik bemorlar haqidagi ma’lumotlar yaxlit ko‘rinib turadi.

Shu yerda Dmed yagona tibbiyot tizimi haqida ham axborot berildi. U shu yil yaqinida Toshkentda to‘liq ishga tushiriladi. Keyinchalik butun mamlakatimiz bo‘ylab joriy etiladi.

Davomi 2-betda

## DAVLATIMIZ RAHBARI MARHUM AKADEMIK OILASIGA HAMDARDLIK BILDIRD

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti, fizika-matematika fanlari doktori, akademik, Oliy Majlis Senati a‘zosi, O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi Behzod Yo‘ldoshev 28-avgust kuni vafot etgan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bugun ta’ziyali xonadonga tashrif buyurdi. Qur‘on tilovat qilinib, duo o‘qildi.

Davlatimiz rahbari marhumning ezgu ishlarini, Vatanimizga xizmatlarini yodga oldi.

Behzod Yo‘ldoshev 1945-yil 9-mayda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Mehnat faoliyatini 1968-yilda Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi instituti stajyor-tadqiqotchisi sifatida boshlagan.

Yuqori energiyalar fizikasi sohasida xalqaro miqyosda keng e’tirof etilgan olim Yadro fizikasi instituti direktori, Fanlar akademiyasi prezidenti lavozimlarida o‘zining

yuksak ilmiy va tashkilotchilik salohiyatini namoyon etgan. Yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash, xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy natijalarni iqtisodiyot tarmoqlarida qo‘llash ishlariga munosib hissa qo‘shgan. U Atom energiyasi bo‘yicha xalqaro agentlikda va universitetlarda ishlagan, ko‘plab yirik loyihalarga rahbarlik qilgan.

B.Yo‘ldoshev Oliy Majlis deputati, keyingi vaqtda Oliy Majlis Senati a‘zosi sifatida samarali faoliyat olib borib, qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilishda fidoyilik ko‘rsatdi.

Akademik B.Yo‘ldoshevning mamlakatimiz ilm-fani rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U “O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi” faxriy unvoni, “Fidokorona xizmatlari uchun” va “Mehnat shuhrati” ordenlari, Beruniy nomidagi davlat mukofoti, “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni bilan mukofotlangan edi.

Davlatimiz rahbari marhumning rafiqasi va farzandlariga hamdardlik bildirib, sabr-toqat tiladi. Ular tashrif va dalda so‘zlari uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirdi.

O‘zA

## BIR BO‘LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

Qonlar, jonlar va ko‘z yoshlar evaziga

QO‘LGA KIRITILGAN BUYUK NE‘MAT



Bu yorug‘ dunyoda inson uchun zarur qadriyatlar, muqaddas tushuncha va ochilmagan tilsimlar soni mingta. Kimlardir ko‘z bilan ko‘radigan, qo‘l bilan ushlay bolar, his qila oladigan narsalarga sajda qilsa, ularni tavof aylasa, kimlardir o‘zlar tasavvur eta olmaydigan, inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadigan g‘oyalar, mafkura va nazariyalarga ehtiromda bo‘ladi.

Biroq shunday ulug‘ qadriyat borki, uni dunyodagi barcha ongli mavjudot, o‘zida kuchli mas’uliyat hissini sezgan odamlar bir xil tarzda tan oladi, tasavvur etadi. Bu — Vatan, uning mustaqilligi haqidagi tushunchadir.

Vatan hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan yagona xilqat. Vatan haqida o‘ylamaydigan, uning muqaddasligi haqida fikr yuritmaydigan, o‘zini, avlod-ajdodlari taqdirini u bilan bog‘lamaydigan biror inson topilmasa kerak. Shuningdek, biz “Vatan” so‘zi oldiga “Ona” so‘zini ham qo‘shib

aytmiz. Chunki har ikki tushunchaning boshqa o‘xshashi yo‘q. Vatan yagona bo‘lgani kabi ona ham yagona.

Ushbu satrlarni bayon etar ekanman, beixtiyor Prezidentimiz joriy yil 18-iyul kuni imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorda zikr etilgan fikrlarni mushohada qilaman. Qarorda mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, huquqiy, demokratik, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to‘laonli subyektiga aylangan alohida ta’kidlandi.

Ayniqsa, keyingi yetti-sakkiz yilda O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy qiyofasi tubdan o‘zgarayotgani, xalqimizning turmush darajasidagi ijobiy xislatlar ularning tafakkur tarzidagi evrilishlar bilan mutanosib ravishda kengayib borayotgani yuritimiz taraqqiyotining asosiy omillariga aylanayotganidan darak beradi. Vatanimizning xalqaro nufuzi tobora ortib borishi esa jonajon O‘zbekistonimizning ham mintaqada, ham jahon miqyosida ta’sirchan kuchga aylanayotganini ko‘rsatib turibdi.

Qarorda vatanimizning milliy istiqloli, xalq ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan ota-bobolarimiz xotirasini yod etish har birimizning muqaddas burchimiz ekani muhim vazifa sifatida belgilab qo‘yildi.

Muqaddas bayramimiz arafasida xalqimizning ming yillar davomida bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, erishgan yutuqlari, jahon tamadduniga qo‘shgan zalvarli hissasi, shuningdek, bu yo‘lda qo‘ldan boy berilgan imkoniyatlar borasida chuqur o‘ylash, amaliy-mantiqiy xulosalar chiqarish mamlakatimiz va jamiyatimizning kelgusidagi taraqqiyoti uchun juda zarur.

Yuqorida tilga olingan qarorda bayramga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayoni “Bir bo‘lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!” bosh g‘oyasi asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. Bunda mantiqiy asos bor. Gap shundaki, ko‘p millatli O‘zbekiston o‘z taraqqiyoti, boy tarixi davomida ko‘plab bosqinchiliklar, xunrezliklar, adolatsizliklar guvohi bo‘ldi. Yuritimizning yer osti va yer usti boyliklari, mehnatkash xalqimiz, qulay tabiiy sharoitimiz doimo dushmanlar ko‘zini o‘ynatib kelgan.

Davomi 3-betda

## PARALIMPIYA: BIRINCHI KUN — IKKI MEDAL



PARIS 2024 PARALYMPIC GAMES

Fransiya poytaxti Parijda bo‘lib o‘tayotgan Parolimpiya o‘yinlarini O‘zbekiston terma jamoasi atletlari zafarli yurishlar bilan boshladi.

Musobaqalarning ilk kunida Muslima Odilova suzish bo‘yicha bronza medalga egalik qildi.

Ayollar o‘rtasidagi taekvondo bahslarida esa Ziyodaxon Isoqova kumush medalni qo‘lga kiritdi.





# ULUG' AYYOM ARAFASIDA FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN YIRIK BUNYODKORLIK LOYIHALARI XALQIMIZGA MUNOSIB TUHFA

## Boshlanishi 1-betda

Onkologiya markazida ilmiy va amaliyot uyg'unligiga katta e'tibor qaratiladi. Pozitron emission va yagona fotonli emission kompyuter tomografiyasini qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boriladi. O'smalarning molekulyar-genetik diagnostikasi asosida tadqiqotlar olib borilib, personallashtirilgan target va immunoterapiya davosi usullari klinik amaliyotga tatbiq etiladi.

Umuman, yangi uskunalar va sharoitlar natijasida markazda o'sma kasalliklarini erta aniqlash hamda davolash samaradorligi bir necha barobar oshadi. Pirovardida o'lim holatlarini kamaytirish, insonlarni sog'aytirib, umrini uzaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu tibbiyot turizmiga ham manba bo'ladi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Jamoat xavfsizligi universitetini borib ko'rdi.

Mamlakatimizda qo'mondonlik va texnik kadrlar tayyorlaydigan, bir necha o'quv muassasalarini birlashtirgan ko'p bosqichli harbiy ta'lim tizimi yaratilgan. Jamoat xavfsizligi universiteti shulardan biri.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 15-apreldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida qayta tashkil topgan ushbu maskan malakali kadrlarni maqsadli tayyorlaydigan oliy harbiy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi. O'quv yurtining asosiy vazifasi chuqur o'qitish, jangovar va jismoniy tayyorgarlikni oshirish orqali jamoat xavfsizligini samarali tashkil etishga qodir malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

Buning uchun Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya uchun tegishli ravishda jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati

xavfsizligi va pasport tizimi yo'nalishlari bo'yicha, Qurolli Kuchlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun esa harbiy diplomatiya, yurispudensiya, iqtisodiyot, muhandislik-texnik, tarbiyaviy-psixologik va qo'mondonlik-taktik faoliyat sohalarida zamonaviy ta'lim beriladi.

Universitetga 2021/2022 o'quv yilidan boshlab talabalar qabul qilina boshlagan. Bakalavriatda 15, magistraturada 8 yo'nalish bor. Bugungi kunda bakalavriatda mingdan ortiq kursant, maxsus yo'nalish, sirtqi ta'lim va magistraturada yana shuncha yoshlar tahsil olyapti. Ularga jami 209 nafar o'qituvchi, professor va fan doktorlari saboq bermoqda.

O'quv tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda umumfuqaroviy asosda o'qishga ruxsat berilgan bo'lib, bugungi kunda yurispudensiya, iqtisodiyot va psixologiya ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalar tahsil olmoqda. Universitet bitiruvchilari Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'limlarida samarali xizmat qilmoqda. Shuningdek, o'z qo'riqlash tuzilmasiga ega davlat va xo'jalik organlari uchun shu bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

So'nggi yillarda universitetning o'quv binolari kapital ta'mirlanib, barcha sharoit yaratildi. Sport majmuasi va o'quv-uslubiy situatsion markazi yangidan qurildi. Har biri 300 o'ranga mo'ljallangan 6 ta yotoqxona zamonaviy holatga keltirildi.

Davlatimiz rahbari ushbu sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

O'quv xonalari keng va yorug', zamonaviy texnikalar bilan ta'minlangan. Axborot-resurs markazida 90 mingdan ziyod adabiyot va o'quv qo'llanmasi, 10 mingdan ortiq elektron adabiyot mavjud. Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona va oliy ta'lim muassasalarining yagona elektron

kutubxona axborot tizimi bazalariga ulangan. Universitetda ilmiy salohiyat oshib bormoqda. Tashkil etilgan yili bu boryo'g'i 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayni paytda 75 foizga ko'tarildi. Universitet jamoasi tomonidan turli fanlar bo'yicha 200 dan ortiq o'quv qo'llanmasi, 120 ta darslik tayyorlanib, chop etildi. Xalqaro hamkorlikni kengaytirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz ofitser va talabalar bilan muloqotda dual ta'limni keng jori qilish, o'quv dasturini bugungi xavf-xatarlarga moslashtirib borish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Universitetning yangi sport majmuasi ham ko'zdan kechirildi.

Ikki qavatli majmuada basseyn, trenajyor va krosfit zali, boks, ko'pkurash maydonlari tashkil etilgan. Katta sport zalida gimnastika, mini-futbol, gandbol, voleybol, basketbol, stol tennisi bilan birga balandlik tayyorgarligi va evakuatsiya mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin.

Kursantlar sportda ham katta yutuqlarga erishmoqda. Shu kungacha jahon chempionatlarida 4 oltin, 3 kumush, 5 bronza medal, qit'a va respublika musobaqalarida ham ko'plab yutuqlar qo'lga kiritildi. Bir necha talabalar davlat stipendiyalariga, harbiy xizmatchilar "Mard o'g'lon" davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Ma'naviyat va ma'rifat markazida 500 o'rinni tadbirlar zali, harbiy orkestr jamoasining shug'ullanishi uchun alohida xona, vatanparvarlik muzeyi, psixologik markaz joylashgan. Davlatimiz rahbari ularning ijodiy chiqishlarini kuzatdi.

Toshkent halqa yo'li poytaxtimizning eng uzun va keng ko'chasi. Faqat uning Mirzo Ulug'bek tumanidan o'tgan bir qismi tor bo'lib, hozirgi tabaqo — kuniga 45-50 mingta avtomashina dalgavoziga mos kelmay qolgan edi. Shu bois, ushbu yo'l kengaytirilib, qayta qurildi.

Davlatimiz rahbari bu yerga kelib, transport va piyodalar uchun yaratilgan qulayliklarni ko'zdan kechirdi.

Bu yo'l poytaxtimiz va Toshkent viloyatining bir necha tumanlarini bog'laydi. So'nggi yillarda qatnov sezilarli ortdi. Shularni inobatga olib, bu yerda zamonaviy transport yechimi qo'llanildi. Yo'lning 4 kilometriga asfalt-beton yo'tqizildi. Qatnov qismi esa oldingidan ancha kengaytirilib, 6-8 tasmaga yetkazildi. Shuningdek, 4 ta yer osti o'tish joyi, piyoda va veloyo'laklar qurildi.

O'ziga xos yechimlar asosida 3 ta qayrilib olish hamda 18 ta kesishmalarida to'g'shilib olish joylari tashkil etildi. Bu haydovchilarga qulaylik yaratib, tirbandlikni kamaytirishda muhim omil bo'ladi.

Ko'chani Buyuk ipak yo'li bilan kesishmasida yig'ma temir konstruksiyali yo'l o'tkazgich qurildi. Mamlakatimizda ilk bor qo'llanilgan bu usulning afzalligi ko'p. Xususan, uning qurilish muddati boshqa ko'priklarga nisbatan ikki barobar kam vaqt talab qiladi. Xizmat ko'rsatish muddati esa yuz yildan ortiq. O'tkazgichni ta'mirlash ishlari ham ancha arzon tushadi.

Ko'cha bo'yilariga elektron shaklda boshqariladigan tungi yoritish tizimi, aqlli svetoforlar o'rnatildi. O'n ucha bekat qurildi. Hudud ko'kalamzorlashtirilib, manzarali daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Prezident yangi yo'l va inshootlar Mustaqillik bayramiga tuhfa ekanini ta'kidlab, xalqning uzog'ini yaqin, og'irini yengil qiladigan bunday qurilishlar davom ettirilishini bildirdi.

Ma'lumot o'rinda qayd etish joiz, joriy yilning o'tgan davrida mamlakatimizda 12 ming 600 kilometr avtomobil yo'llari, ikki yuzga yaqin ko'priklar rekonstruksiya qilindi.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O'ZA muxbirlari

# O'ZBEKISTON – AFG'ONISTON CHEGARASIDA XALQARO SAVDO MARKAZI OCHILDI

## Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida O'zbekiston – Afg'oniston chegarasida barpo etilgan "Termiz xalqaro savdo markazi" erkin savdo zonasi foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan bo'lib o'tgan tantanali marosimda O'zbekiston, Afg'oniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston hukumatlari delegatsiyalari va boshqa rasmiylari, yirik ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, mehnat faxriylari va yoshlar qatnashdi.

Tadbirda Prezidentimiz tashabbusi bilan keyingi yillarda O'zbekiston dunyo davlatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, savdo va sarmoyaviy sohalarda o'zaro hamkorlik aloqalarini yangi formatda rivojlantirayotgani alohida ta'kidlandi. Bu jarayonda qo'shni Afg'oniston ham Surxondaryo viloyatining yaqin hamkorlaridan biri bo'lib kelayotgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari hamisha Afg'onistondagi vaziyatga dunyo hamjamiyatining e'tiborini qaratib keladi. Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida "hozirgi qiyin davrda Afg'onistonni yakkalab, uni muammolarga girdobiga tashlab qo'yish mumkin emas"ligini alohida ta'kidlagan bo'lsa, BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida O'zbekiston bundan buyon ham Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shni, barqarorlik, o'zaro hamkorlik va rivojlanish muhitini mustahkamlash yo'lidan qat'iy borishini qayd etib, Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik tashabbusini, "Bizga tinch va barqaror, mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etadigan, qo'shnlari va boshqa mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli sheriklik uchun ochiq Afg'oniston kerak", degan g'oyani ilgari surgan edi.

Ayni paytda mamlakatimizda yaqin qo'shni Afg'oniston tadbirkorlarining o'z biznesini yuritishi uchun qulay muhit yaratilgan. Jumladan, birgina Surxon vohasida afg'onistonlik ishbiarmonlar ishtirokida 210 dan ortiq korxonaga faoliyat yuritmoqda. O'tgan yil viloyatning Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi qariyb 58 million dollarni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan uch barabarga o'sgan. Mustaqilligimizning 33 yillik bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan "Termiz xalqaro savdo markazi" erkin savdo

fuqarolariga O'zbekistonga kirish vizasiziz 15 kun markazda bo'lish va chiqish imkoniyati beriladi. Multivalyuta, ya'ni O'zbekiston so'mi bilan birga AQSH dollari, yevro, Rossiya rubli va yuan qabul qilish tizimi joriy etilgan. Markaz hududiga keluvchi barcha tovarlar bojxona to'lovlarisiz joylashtiriladi va chiqariladi. Hududda banklar, notariuslar va boshqa davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari tashkil etilgan. Shuningdek, majmuada "Hilton Garden Inn" mehmonxonasi, "Akfa Medline" zamonaviy tibbiyot majmuasi, "Central Asia University" biznes maktabi, yirik savdo markazi, restoran, xostel, yiliga 900 ming tonna yuk aylanmasi quvvatiga ega yirik logistika markazi hamda ishlab chiqarish korxonalari barpo etilgan. Maydoni 50 ming kvadrat metr bo'lgan mingta savdo do'koni, bir yilda 100 ming yuz mashinasini qabul qilish quvvatiga ega avtoturargoh qurilgan. Afg'onistondan keluvchilar uchun Mozori Sharif shahridan har kuni avtobus qatnovi yo'lga qo'yilmoqda.

Xalqaro savdo markazi Karachi — Termiz — Toshkent — Qozog'iston — Rossiya transport koridorining muhim bog'lovchi qismi hisoblanib, Hind okeani portlariga chiqish imkonini berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Yirik majmuada zamonaviy texnologiyalar asosida mahsulotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash inshootlari mavjud bo'lib, yuklarni "Yagona darcha" tamoyili asosida tezkor rasmiylashtirish uchun barcha qulaylik yaratilgan.

"Akfa Medline Ayritom" klinikasida 315 nafar malakali shifokor va boshqa tibbiyot mutaxassisi radiologiya, stomatologiya, fizioterapiya bo'limlari hamda poliklinikada sifati xizmat ko'rsatadi. "Central Asia University" biznes maktabida tashkil etiladigan o'quv kurslarida yiliga 500 dan ortiq afg'on tadbirkori savdo va ishlab chiqarish bo'yicha malaka oshirishi mumkin. Barcha tinglovchilar zarur sharoitlarga ega yotoqxona bilan ta'minlanadi.

Savdo markazida yaqinda loyiha qiymati 4,5 million dollarlik "Imzo" eshik-romlarini ishlab chiqarish



zonasi ham bevosita davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bunyod etildi.

Prezidentimizning 2020-yil 12-noyabrda "Surxondaryo viloyati va Toshkent shahrida maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq tashkil etilgan markaz mintaqaviy savdoni rivojlantirib, mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish uchun qulay shart-sharoit yaratish, o'zbek-afg'on xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada yaxshilash va rivojlantirish orqali yaxshi qo'shni munosabatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda hozircha muqobili yo'q erkin savdo zonasi 36 gektar maydonda qad rostladi. Qiymati 70 million dollarga teng loyiha Afg'oniston, Pokiston va boshqa mamlakatlar tadbirkorlariga sanoat, iste'mol tovarlari savdosi hamda eksportini o'stirishda muhim o'rin tutadi. Mutaxassislar majmuaga yiliga 1,5 million kishi kelishi, uning yillik savdo hajmi 1 milliard 200 million dollarni tashkil etishini aytmoqda.

Erkin savdo zonasida yaratilgan imtiyozlar doirasida barcha chet davlat

boshlanadi. 25 kishining bandligini ta'minlaydigan yangi loyihadan yiliga byudjetga 150 million so'm mablag' tushadi. "TERMEZ GOLD PRODUCTION" zargarlik buyumlari va yarim tayyor zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish, "CITY-ELECTRIC GROUP" yorug'lik texnikasi uskunalari ishlab chiqarish korxonalari ham ish boshlaydi. Yaqin qo'shni va azaliy do'stligimizni keng namoyon etgan savdo zonasi ochilish marosimining ishtirokchilari zamonaviy markaz bilan yaqindan tanishdi.

Tantanali tadbirda Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Shaxin Mustafayev, Qirg'iziston Respublikasi iqtisodiyot va savdo vaziri o'rinbosari Nazarbek Malayev, Qozog'iston Respublikasi savdo va integratsiya vaziri o'rinbosari Kayrat Toreboyev va boshqalar ishtirok etdi.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Afg'oniston Bosh vaziri vazifasini vaqtincha bajaruvchi Barodar Mulla Abdul G'ani so'zga chiqdi.

Xolmo'min MAMATRAYIMOV,  
O'ZA muxbiri

## Imtiyoz

# RAQOBATBARDOSH MILLIY BRENDLAR

## Bu borada tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotimiz yanada yuksaladi



"Made in Uzbekistan" yoki "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan". Bugun savdo do'konlariga kirganimizda ushbu yorliq ostidagi mahsulotni ustun qo'yamiz. Chet ellarda o'zimizning milliy brendli mahsulotlarni ko'rganda esa ham quvonamiz, ham faxrlanamiz.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz rivojlanib, mahsulotni eksport qilayotgan tadbirkorlar soni ko'paymoqda. Tahsilarga ko'ra, birgina to'qimachilik sohasida o'tgan yili 8,2 milliard dollarlik mahsulot ishlab chiqarilgan, bu yetti yil avvaligiga nisbatan 4,2 barobar ko'p.

2023-yilda tarmoqdagi eksport hajmi 3,1 milliard dollarni tashkil etgan. Joriy yil boshida yana uchta yangi bozorga chiqilib, eksport geografiasini 83 mamlakatga yetgan.

Lekin, aslida, to'qimachilik sohasida ham, sanoatning boshqa yo'nalishlarida ham eksport salohiyati bundan ancha yuqori.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 7-avgustdagi "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tadbirkorlarga bu borada yangi imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

Mazkur qaror sanoat sohasiga nufuzli xalqaro brendlarni jalb etish, ular bilan hamkorlikda ishlab chiqarishni kengaytirish, shuningdek, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh milliy brendlarni shakllantirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir, — deydi Savdo-sanoat palatasi boshqarma boshlig'i Alisher Mirxoldorov. — Shu bilan birga, sanoatga nufuzli xalqaro brendlarni jalb qilish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy qilish, xalqaro brendlar ostida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh milliy brendlarni yaratishni yanada rag'batlantirish hamda bu borada tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Hujjatning eng muhim jihati, xalqaro



brendlar ostida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalariga soliq imtiyozlari taqdim etilyapti. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2024-yil 1-iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalar uch yil davomida nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo'lgan barcha xomashyolar mahalliylashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etiladi.

Qarorda tadbirkorlik subyektlarining "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" ("Made in Uzbekistan") yorliq'i ostida xalqaro brendlarning global qo'shilgan qiymat va tashqi bozorlarda raqobatbardosh milliy brendlarni yaratishni yanada rag'batlantirish hamda milliy sanoat brendlarni qo'llab-quvvatlash dasturini amalga oshirishga qaratilgan vazifalar belgilandi. Yangi tartibga muvofiq, 2025-yildan

boshlab har yili 1-apreldan qadar Savdo-sanoat palatasi maxsus elektron platformada xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning so'nggi reytingida birinchi 500 o'rinni egallagan sanoat yo'nalishidagi brend egalari ichidan saralab olgan holda nufuzli xalqaro brendlar ro'yxatini shakllantiradi va e'lon qiladi.

2024-yil 1-sentabr dan boshlab Savdoga ko'maklashish jamg'armasida mablag'lari hisobidan yangi moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarini joriy qilindi. Jumladan, nufuzli xalqaro brendlar ro'yxatiga kiritilgan brend egalari bilan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish to'g'risida to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzgan yuqori va o'rta barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik subyektlariga xalqaro standartlarni joriy qilish, ekologik va muvofiqlik bo'yicha sertifikatlash, shuningdek, mutaxassislarning brend egalari hisoblangan korxonalarida, ularning ishlab chiqarish maydonlarida malakasini oshirish xarajatlarini qoplashda, nufuzli xalqaro brendlar ostida kamida 1 million AQSH dollari miqdorida sanoat

mahsulotlari ishlab chiqarilganda — grantlar ajratishda ko'maklashiladi.

Milliy brendlar ro'yxatiga kiritilgan brend egalari esa ushbu xarajatlarning 50 foizigacha qismi qoplab beriladi. Ya'ni standartlashtirish va sertifikatlashning xalqaro tizimlarini joriy etish, shuningdek, xorijiy vakolatli organlarda milliy mahsulotlar va brendlarni ro'yxatdan o'tkazish, xalqaro savdo maydonchalariga (marketpleylarga) chiqish, xorijiy davlatlardagi "Made in Uzbekistan" shourumlarida mahsulotlarini joylashtirish, xorijiy savdo uylarini tashkil qilishda binolarni ijaraga olish, xalqaro ko'rgazmalarda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tish, joyni ijaraga olish, ko'rgazma stendlarini tashkil etish va mahsulotlar reklamasini internet tarmog'ida joylashtirish kabilarda yordam beriladi.

Bu ishlar uchun nazarda tutilgan xarajatlarni moliyalashtirishga Savdoga ko'maklashish jamg'armasidan 25 million AQSH dollari miqdorida mablag' yo'naltiriladi.

Savdo-sanoat palatasi 2024/2025 o'quv yilidan boshlab Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi hamda Turkiya Iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining Toshkent shahridagi filialida "Moda", "Dizayn", "Texnologiya", "Standartlashtirish", "Innovatsiyalar", "Marketing" va "Menejment" ta'lim yo'nalishlarida mahalliy mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yadi.

Qarordan juda ko'plab yangiliklar, tadbirkorlar uchun imtiyozlar o'rin olgan. Xususan, 2024-yil 1-sentyabr dan 2027-yil 1-yanvargacha qadar mahsulotining kamida 30 foizini nufuzli xalqaro brend ostida ishlab chiqaradigan brend hamkorlari uchun yer, mol-mulk solig'i va suv resurslaridan foydalanish uchun soliq stavkalari hisobot davrida 50 foiz kamaytiriladi.

Ushbu qaror ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh milliy brendlarni yaratishni rag'batlantirishga xizmat qiladi, bu borada tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash esa iqtisodiyotimizni yanada yuksaltirishga zamin yaratadi.

Lutfulla SUVONOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!



Qonlar, jonlar va ko'z yoshlar evaziga

QO'LGA KIRITILGAN BUYUK NE'MAT

Boshlanishi 1-betda

Bundan 33 il muqaddam qo'lga kiritgan tarixiy g'alabamiz bizdan har daqiqaga oqib bo'lishimiz, siyosiy hushyorlikni esdan chiqarmaslikni talab etadi. Chunki xalqimiz hurlikning o'rgan qisqa davrida ozodlik va erkning naqadar totli ekanini anglab yetdi. Biz endi o'zining mustahkam zaminiga, o'z so'zi, mustaqil tashqi siyosatiga, jahon ayvonida erkin, barcha bilan teng gaplasha oladigan kuchli davlatga aylandik.

Bugun yurtimiz mustaqilligiga muayyan darajada xavf solib turgan ayrim kuchlar borki, biz o'z siyosatimizda ana shu omillarga alohida e'tibor bermasligimiz mumkin emas. Nazarimda, bunday xavflar juda ko'p bo'lsa-da, ularni umumlashtirib, ikki katta guruhga bo'lish mumkin.

Birinchidan, turli g'oyaviy-mafkuraviy tashkilotlarga kuchayib borayotgan, qator davlatlarning o'z milliy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida barcha vositalardan foydalanishi avj olayotgan hozirgi globallashuv sharoitida o'zga yurtlarni o'z ta'siriga kiritish amaliyoti hali ham avj olib bormoqda. Nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda o'z so'ziga, mustaqil tashqi siyosatiga ega bo'lgan O'zbekistonga nisbatan turli g'ayriinsoniy harakatlari qilishga moyil davlatlar hali borligini esdan chiqarmaslik kerak.

Ikkinchidan, yangi O'zbekiston sharoitida kechayotgan tub islohotlar mazmun-mohiyatini to'liq anglamayotgan yoki anglashni istamayotgan ayrim vatandoshlarimiz borligini yoddan chiqarish aslo mumkin emas. Kechagi kunning kayfiyatida yurgan, yaqin o'timishda yurtimizda sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, g'oyaviy-mafkuraviy voqea-hodisalaridan to'g'ri xulosalar chiqara olmayotgan ba'zi kishilarning mustabid tuzumni sog'inish holatlari mavjudligi ham, nazariyda, yangi O'zbekistoni barpo etishga muayyan darajada xalaqat qiladi.

Shuning uchun biz muqaddas bayramimiz arafasida tariximiz, ayniqsa, yaqin o'timishimizning ayrim jirkanch sahifalaridan xalqimizni xabardor qilishimiz zarur. Zero, tarixni unutmoq, aslida, o'zlikni unutish, o'z tarixiy, ma'naviy zaminidan judo bo'lishdan boshqa narsa emas. Darhaqiqat, inson ruhiyati, dunyoqarashi, ma'naviy olamida uning kelajak sari rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratmas ekanimiz, bu hol, shubhasiz, har qanday jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy asoslarini yemiraveradi.

Keling, shu o'rinda ulug' va aziz istiqloq bayramimiz arafasida xalqimizning yaqin o'timishdagi ahvoli, mustaqillik va erk uchun kurashlari tarixiga qisqacha nazar tashlaylik.

Sobiq sovet davri adabiyotlarida O'rta Osiyoning Rossiyaga o'z ixtiyori bilan qo'shilgan haqidagi aqidlalar ustuvorlik qilgan. Emishki, xalqimiz XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshlarida o'zining og'ir iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilash, mahalliy boy-amaldorlar zo'ravonligidan qutulish uchun mustamlakachilarni xursandchilik bilan, tuz-non tutib kutib olgan.

Bunday qarash mustabid tuzum siyosatidagi zo'ravonliklar, xalqimizga yetkazilgan zararahmatlar hajmini atayin kamaytirish uchun to'qib chiqilgan siyosiy nayranglardan boshqa narsa emas.

Xo'sh, aslida, qanday bo'lgan edi? O'z qadr-qimmatini bilgan xalqimiz ozodlik, hurlik qimmatini ham juda yaxshi tushunib yetgan. Shuning uchun har qanday dushmanga qarshi tinimsiz qarshilik ko'rsatgan, o'z sha'ni-sharafini ko'z qorachig'idek himoya qilishni millat or-nomusi deb bilgan. O'zbekiston tarixini mustaqillik uchun kurashlar tarixi deysizga to'liq haqqimiz bor.

Istiloqchilar qanday yo'llar bilan bo'lmasin, yurtimizning boy iqtisodiy imkoniyatlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qildi. Qishloq va shaharlarimiz talandi, iqtisodiyotimizga katta zarar yetkazildi, xalqning ahvoli esa yildan yilga og'irlasha boshladi. Birgina 1916-yilda Turkiston general-gubernatorligidan Rossiya frontiga 654 ming 388 tonna paxta, 38 ming kvadrat metr chidamli jun gilam, 49 ming 744 tonna go'sht, 70 ming bosh qoramol, 12 ming 797 bosh tuya va 2,4 million oltin rubl jo'natildi.

Bunday talonchilik xalqimizning og'ir iqtisodiy ahvolini yanada qiyinlashtirdi. Natijada o'zbek xalqi qo'lga tushgan qurollar — miltiq, ketmon, oroq, barcha vositalar bilan o'z yurtidan mustamlakachilarni quvib chiqarishga bel bog'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, birgina 1899-1917-yillar mobaynida



Abduxalil MAVRULOV, tarix fanlari doktori, professor

Turkiston general-gubernatorligida hukmron bosqinchilarga qarshi 4922 marotaba qurolli hujum uyushtirdi.

Biroq o'lkamizning o'sha paytdagi og'ir ahvoli, yurtimizning jahon taraqqiyotidan jiddiy ortda qolgan tufayli bu qarshilik harakatlari ko'pincha mag'lubiyat bilan tugagan, qo'zg'olonchilar esa shafqatsizlarcha jazolangan. Shu o'rinda avstriyalik harbiy asir, ofitser Fris Uilfort 1916-yilgi Jizzax shahridagi qo'zg'olonni bostirish chog'ida mustamlakachilarning g'ayriinsoniy munosabatini quyidagicha tasvirlagan: "1916-yil 2-avgust, ko'hna Jizzax xarobalar uyumi, qo'l ostidagi hamma narsa yondirildi. Biz o'zimiz (harbiy asirlar) har tomondan jasadlar va o'lgan otlarni ko'mishimiz kerak edi. Vazifamiz barcha jasadlar bilan xoh ot, xoh odam bo'lishidan qat'i nazar, chuqurmo'tol'dirish edi. Jasadlar soni ko'p bo'lsa, ularni maydonga yig'ib, ostidan o't qo'yishadi. Quyosh jazirasida jasadlarning badbo'y hidi havoni buzadi. Afsuski, jasadlar orasida tiriklarning dahshatli qichqiriqlari ham bor: rus askarlarining kuchli zarbalari tufayli ular darhol boshqalar bilan dafn etiladi. Bu dahshatli qo'l mehnati evaziga askarlarimiz boshliqdan mo'l-ko'l oziq-ovqat, hatto talon-taroj qilingan ko'rpa-to'shak, choy, tamaki, quritilgan mevalar kabi barcha turdagi narsalarni olishga muvaffaq bo'ladi".

O'zbekistonning mustaqillik uchun kurashlari tarixida 1918-yili Qo'qonda bo'lib o'tgan vahshiyliklar alohida o'rin tutadi. Mustabid tuzum davri adabiyotlarida "Qo'qon muxtoriyati" deb atalgan voqealar,



aslida, Turkiston muxtoriyati edi. O'sha davr siyosatdonlari bu voqeaning siyosiy-mafkuraviy ahamiyatini sun'iy ravishda kamaytirish maqsadida uni "Qo'qon muxtoriyati" deb atadi. Turkiston muxtoriyati milliy tariximizning o'ziga xos bosqichidir. 1917-yil noyabr oyida tashkil topgan davlatchilgimizning ushbu shakli uzoq yashamadi. 1918-yilning 18-fevralidan 19-fevraligacha o'tar kechasi qizil qo'shinlar Qo'qon shahriga uch tarafdin hujum boshladi. Bu hujumlardan maqsad yosh milliy davlatning "ko'zini ochib qo'yish" edi. Birgina ana shu kunlarning o'zida Qo'qonda 10 ming begunoh odam o'ldirildi.

Qo'qon og'ir janglar og'ushida qoldi. 18 minggacha jangchisi bor edi. Bu davrda Farg'ona vodiysida ozodlik uchun kurash ommaviy harakatga aylangan edi. Bir qancha qo'rboshilar turli hududlarda qizil armiya askarlariga qarshi harakatlari olib bordi: Ergash (taxminan 18 ming odam), Madaminbek (5 ming, ayrim ma'lumotlarga ko'ra — 28 ming), Sherumhammadbek (taxminan 5 ming), Xolxo'ja (taxminan 3 ming), Parpi (taxminan 3600), Muhiddinbek (taxminan 4500), Omon Pahlavon (2500 dan ortiq), Nurumhammadbek (taxminan 3900), Jonibek (taxminan 5700) kabi yuzlab vatanparvarlar mamlakat va millat mustaqilligi, or-nomusi uchun qo'llariga qurol olib jang qildi.

Ko'chalar, dahalar qo'ldan qo'lga o'tib turar, yuzlab, minglab tinch aholining yostig'i qurir edi. Istiloqchilar 12 ta to'pdan tinmay o'q uzdi. Shahar qonga to'ldi, yurtimiz bunday xunrezliklarni ko'rmasdan edi. Biz yuqorida nomini eslagan Fris Uilfort yozadi: "Qo'qon yo'nalishidan vozalga 25 vagon bir-birining ustiga tiqilib qolgan qizil askarlar to'la poyezd kelib qoldi. Dala artilleriyasi, gaubitsa va pulemyotlar ochiq vagonlarda mohirlik bilan kamuflyaj qilindi. Vagonlardan biri askarlar va ularning o'ljalariga to'la edi. Boshqa vagonlarda otlar, qoramollar va bolalar yig'ilib turardi. Ikki yo'lovchi vagonida tish-tirmog'igacha qurollangan qizil askarlar, ularning boshida Osipov bor edi".

Aslida, nima bo'lgan edi? Istiloqchilar Qo'qon shahrini chaqmoqdek urgani, shahardagi sirtlar orasida dahshatli qirg'inlar, eski shaharni vayron qilib, o't qo'ygani, musulmon hukumati birdan yo'q qilgani haqidagi xabar butun hududga tarqaldi. Katta o'lja, Qo'qon bankining butun oltin xazinasini qizil askarlar qo'lga o'tdi. O'sha hodisalar guvohlarining yozishicha, Qo'qon "olov dengizi"ga aylandi. Talonchilik va o'g'irlik avj oldi. Eski shahar hududidagi barcha korxonalar, do'konlar, banklar va uyalar talon-taroj qilindi. Dastlab bozor yoqib yuborildi. So'ngra butun eski shahar hududi yondi. 21-fevraldan yong'in 15-20 kilometr masofadan ko'rina boshladi. Yong'in taxminan 15 kun davom etdi. Shaharda yong'inni o'chirishga odam qolmadi. Jasadlar hidi shaharni tutib ketgandi, deb yozadi "Bosmachilar. Turkiston milliy kurashi tarixi" kitobida doktor Boymirza Hayit.

Ana shu voqealardan so'ng Turkiston o'lkasida uzoq davom etgan va sho'rolar davrida "bosmachilik" deb atalgan, aslida esa milliy-ozodlik harakati boshlandi. Bu harakatning maqsadi yurtni mustamlakachilardan ozod etish, milliy davlatchilik asoslarini tiklashdan iborat edi.

1918-yilning mart-may oylarida Ergash qo'rboshi qo'shinlari Bachqirdagi asosiy qarorgohlaridan turib, Qo'qon atrofidagi qizil qo'shinlarga qarshi 50 dan ortiq hujum uyushtirdi. 1918-yilda Ergashning 16 mingdan

Mustabid tuzum yurtimiz taqdirida va xalqimiz hayotida o'ta mash'um asoratlar qoldirdi. Shu o'rinda vatandoshimiz Boymirza Hayit qalbiga mansub bo'lgan quyidagi ma'lumotlarni berishni lozim topdik: "1917-1923-yillarda faqat Farg'ona vodiysining o'zida 1 milliondan ortiq odam ochlikdan o'lgan. Shuningdek, 1918-1924-yillarda 500 ming kishi qizil askarlar tomonidan qirib tashlangan, 1915-yili Farg'ona mintaqasida 2,2 million kishi yashagan bo'lsa, 1924-yil oxiriga kelib, 500 ming kishi qolgan, ya'ni 10 yil ichida 1 million 700 ming kishi halok bo'lgan. Shahobiddin Yassaviy esa 1920-1935-yillarda Turkistonda taxminan 2 milliondan ortiq kishi noilojlikdan xorijga ketgan deb hisoblaydi".

Boymirza Hayitning hisoblashicha, O'rta Osiyoda 1917-1934-yillarda olib borilgan milliy-ozodlik harakatida turli millat vakillaridan 2 millionga yaqin odam jon fido qilgan. 1930-1939-yillarda kamida 1 million 700 ming kishi "bosmachilik"arga qo'shilgan, ularga yordam bergan yoki ulari haqida ma'lumot bermaganlikda ayblanib, Sibirga va boshqa joylarga surgun qilingan. Hammasi bo'lib 5 million 600 ming kishi qurbon bo'lgan. Bu hisobga chor Rossiya bosqiniga qarshi O'rta Osiyo xalqlari 1853-1917-yillarda olib borgan milliy ozodlik kurashi davomidagi ko'pdan ko'p qurbonlar kirmaydi. Agar ularni ham jamlab, 130 yil davomida qurbon bo'lgan



Yangi O'zbekistonda rus, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari, butun jamiyatning eng ustuvor va muqaddas maqsadiga aylangan. Buni ayrim raqamlar ham tasdiqlab turibdi. Masalan, 2023-yili davlat byudjetida 130 trillion so'm, ya'ni barcha xarajatlarning salkam 50 foizi ijtimoiy sohaga ajratilgan. 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, hozirgi kunda 2 milliondan ortiq oilaga moddiy ko'mak berilyapti. Ajratilgan mablag' esa 7 barobar ko'paydi.

M.Ismoil, Shuhrat, H.Sulaymon va boshqa yozuvchi, shoir, olimlar uzoq muddatli qamoq jazosiga tortildi. 1952-yil fevral oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi plenumida adiblik ishi shaxsiy ish emas, balki partiya va davlat ishi ekan, har bir shoir, yozuvchining asari darajasi uning kobilanistik g'oyalarga qay darajada mosligi bilan belgilanishi lozimligi qayd etildi. Ushbu davrda "Alpomish" dostoni ham g'oyasizlikda ayblandi, u oddiy xalq manfaatlariga zid deb baholandi. Keyinchalik ming yillar davomida xalqimiz milliy-madaniy merosiga aylanib bo'lgan Navro'z bayrami ham eskilik sarqiti, xalqni to'g'ri yo'ldan chalg'ituvchi tadbir sifatida tanqid qilindi va uning nomi "Navbahor" deb o'zgartirildi.

Fikrimizcha, milliy davlat mustaqilligining tom ma'nodagi ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri tushunish, bugungi kunning shukronasini qilish uchun ham ushbu yaqin tarixni o'rganish lozim. Qolaversa, haqiqat nisbatda bilindi. Bugun ayrim vatandoshlarimizning mustabid tuzumni ko'rsashi bilan bog'liq salbiy holatlar mazkur masalaga e'tibor berishimizni talab qilmoqda. Yuqorida bayon etilgan masalalarga ahamiyat bersak, yaqin tariximizda yo'l qo'yilgan xatolarimizni e'tirof qilsak, shubhasiz, mustaqillik yillarida, ayniqsa, keyingi yeti-sakkiz yil ichida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz salmog'i yanada ravshanroq ko'rinadi.

Keling, yaxshisi, shularning ayrimlari xususida to'xtalib o'taylik. Birinchidan, biz bugun mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlar va millatlarning qadr-qimmatini, haq-huquqlari, ayniqsa, rivojlanish huquqini hurmat qilish, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish g'oyasi real haqiqatga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Bularning bari ushbu maqsadlarga tinch, adolati, har qanday ijtimoiy to'siqlardan xoli, inklyuziv va ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etish, hokimiyat organlarining barcha bo'g'inlarida samarali boshqaruv, oshkorlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish orqali erishish imkoniyatlari va tizimni shakllantirmoqda. Keyingi yillardagi eng katta

yutuqlarimizdan biri jamiyatda "inson — jamiyat — davlat" tamoyilining hayotga joriy etilishi bo'ldi, deysish mumkin. Bu fikrlarning hayotdagi ifodasini esa qonunchilgimizda inson huquqlari kafolatlariga oid normalar soni 3,5 barobar oshirilganida, 40 dan ortiq yangi konstitutsiyaviy huquq muhrlanib qo'yilganida ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, mamlakatning salohiyati, millat ravaqi iqtisodiyotning barcha jabhalaridagi taraqqiyot darajasiga, zamonaviy davlat esa innovatsion iqtisodiyot va yangi texnologiyalarga asoslangan industriyaga bog'liq. Ana shu haqiqatni e'tiborga olgan holda bugun bilimlar va innovatsion iqtisodiyotni mustahkamlash, ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish yangi O'zbekiston milliy qiyofasida alohida o'rining ega bo'lmoqda. Davlatimiz rahbari o'z faoliyatining ilk kunlaridanoq keng ko'lamli ilmiy-texnik kooperatsiya va yangi texnologiyalarni, ilmi-fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotga joriy emasdan turib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga erishish mumkin emasligini bot-bot ta'kidladi.

Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish, inson kapitali hamda ilmi-fan sohalarini rivojlantirish maqsadida 2019-yildan O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 2030-yilgacha ta'lim, ilmi-fan va qishloq xo'jaligini rivojlantirishni nazarda tutadigan dasturiy loyihalar hamda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi hayotga tatbiq etilmog'da.

Uchinchidan, agar 2016-yilgacha ham davlatni boshqarish, iqtisodiyotga rahbarlik qilish borasida davlat monopoliyasi va boshqaruvning ma'muriy usullari saqlanib qolgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, bu borada jiddiy sifat o'zgarishlari va oldinga siljishlar yuz berdi. Davlat monopoliyasiga asta-sekinlik bilan chek qo'yilishi, iqtisodiyot sohasida sog'lom raqobat muhiti yuzaga kelishi, ijro hokimiyati tizimi isloh etilishi, ma'muriy-byurokratik to'siqlar olib tashlanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'zgartirib yubordi.

Hozir davlat monopoliyasida bo'lgan elektr generatsiyasi, issiqlik ta'minoti, kimyo, aviatsiya, ta'lim kabi sohalariga xususiy sektor jadal kirib kelmoqda. Xususiy lashtirish dasturi doirasida davlat ulushi mavjud korxonalar soni 6 barobar yoki hozirgi 2,3 mingtadan 360 taga kamaydi. 17 turdagi davlat monopoliyasi bekor qilinib, ularga ham xususiy sektor faol jalb qilindi.

To'rtinchidan, yangi O'zbekistonda inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati, barcha davlat organlari, butun jamiyatning eng ustuvor va muqaddas maqsadiga aylangan. Buni ayrim raqamlar ham tasdiqlab turibdi. Masalan, 2023-yili davlat byudjetida 130 trillion so'm, ya'ni barcha xarajatlarning salkam 50 foizi ijtimoiy sohaga ajratilgan. 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, hozirgi kunda 2 milliondan ortiq oilaga moddiy ko'mak berilyapti. Ajratilgan mablag' esa 7 barobar ko'paydi.

Xalqimizga qulay hayot sharoitini ta'minlash uchun 300 ga yaqin davlat xizmati to'liq raqamlashtirildi va aholiga 50 milliondan ortiq xizmat ko'rsatildi.

Beshinchidan, bugun yurtimiz katta qurilish maydoniga aylandi. Bunday hajmdagi qurilish ishlari mamlakatimiz po'yxatida 1966-yilgi zilziladan keyin bo'lmagan edi. Natijada so'nggi 6-yilda respublika bo'yicha 300 mingta yoki avvalgi yillardagiga qaraganda 10 barobar ko'p uy-joy qurildi. Odamlarni sifati uy-joy bilan ta'minlash maqsadida "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish amaliyoti joriy etilmog'da. Birgina 2023-yilda 38 ta shunday massiv tashkil topdi.

Bunday misollarni yuzlab, minglab keltirish mumkin. Yurtimizdagi barcha bunyodkorlik ishlari, tub islohotlardan ko'zlangan maqsad esa xalqimizning tobora ortib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, odamlarimizga sifati hayot uchun qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir. Ayni paytda mamlakatimizning xalqaro nufuzi yildan yilga ortib bormog'da, yangi O'zbekistonni o'zining yaqin hamkori, ishonchli sherigi sifatida ko'rishni istaydigan davlatlar, xalqaro tashkilotlar soni yanada ko'paymoqda. Aslida, mustaqillikning real ko'rinishi ham shundan iborat.



## Taraqqiyot odimlari

Keyingi yillarda O'zbekistonda konchilik va metallurgiya sohasidagi islohot ko'lami kengaydi. Xususan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidagi ulkan bunyodkorlik ishlari sanoatimiz tarixida yangi sahifalar ochilayotganidan dalolat beradi. O'zbekistondagi tarixiy investitsiya loyihasi — Yoshlik I koni o'zlashtirilishi xalqimiz, iqtisodiyotimiz, mamlakatimiz istiqbol uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Yoshlik I koni dunyoda ma'dan tarkibida oltin hajmi bo'yicha eng yirik kon deya tan olingan. U mis konlaridagi o'rtacha oltin tarkibi bo'yicha ikkinchi, ma'dan hajmi bo'yicha uchinchi, mis hajmi bo'yicha oltinchi o'rinni egalladi.

Loyiha boshlangandan buyon konning 190 million kub metr yuzasi ochilib, ma'dan qazib olishga to'liq tayyorlandi. Konning temir yo'l, elektr ta'minoti va avtomobil yo'lidan iborat infratuzilmasi barpo etildi.

Prezidentimiz 2021-yilda 60 million tonna ma'danni qayta ishlovchi 3-mis boyitish fabrikasi



### Abdulla XURSANOV, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi

qurilishiga start bergan edi. Ayni kunlarda dunyodagi eng yirik tog'-kon sanoati majmuasi sifatida e'tirof etilayotgan ushbu fabrika bunyod etish ishlari yakunlanish arafasida.

Qurilishni jadallashtirish maqsadida metall konstruksiyalar zavodi ishga tushirildi. Mutaxassislarning baholashicha, fabrikaga sarflangan metall konstruksiyalar

10 dan ziyod Eufel minorasini qurishga yetadi. Mana shuning o'zi ham bu fabrika qanchalik yirik majmuasi ekanini ko'rsatadi.

Yoshlik I koni, 3-mis boyitish fabrikasi hamda yordamchi obyektlarni elektr bilan ta'minlash uchun 500 kilovolt kuchlanishli raqamli podstansiya, yuqori quvvatli 110 kilovatt elektr liniyasi, 80 va 63 megavattli podstansiyalar qurilishi yakunlandi.

Kon hududida joylashgan, quvvati 30 million tonna bo'lgan dastlabki maydalash va yuklash bo'limining birinchi qismi hamda kondan fabrikagacha ma'danni tashishga mo'ljallangan konveyer liniyasi qurilib, ishga shay holatga keltirildi. Portlovchi moddalar zavodi quvvati 90 ming tonnaga oshirildi. Tez orada tashqi suv, gaz va elektr ta'minoti obyektlari, tog'-kon texnikasini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi ishga tushirildi.

## Nuqtayi nazar

Mashhur brend ostidagi mahsulotlar dastlab olimlar tomonidan kashf qilinishi va unga patent olinganini hamda bilavermasa kerak.

Bilganlar esa patent qay tartibda olinishi, patentlashtirilgan mahsulotlarning nega hammasi davomli ishlab chiqilmasligi haqida so'raydi.

Tovar olimniki bo'lishi uchun uni patentlashtirish kerak. Agar olim ixtirosini patentlashtirmasa, xuddi shunday ilmiy ishlarini eretaga boshqa birov yoki birov oliy ta'lim muassasasi patentlashtirib, "Bu meniki!" deyishi mumkin.

Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat yuritayotgan olimlar qo'shimcha daromad olishi, sohani yanada rivojlantirish uchun o'z ilmiy ishlanmalarini doimiy ravishda tijoratlashtirib borishi kerak. To'g'ri, bu olimlarga bir oz qiyinchilik tug'diradi, sababi ularda savdogarlik qobiliyati bo'lmasligi mumkin. Olim olimligini qildi, ammo tijorat qilolmaydi, uning ixtirosini kimdir olib sotadi. O'z navbatida, tijoratchi ham olim bo'lolmaydi. Ikkala xususiyatning bir kishida jam bo'lishi qiyin. Bunday xislatli odamlar kamdan kam uchraydi.

Xo'sh, patentlashtirish uchun nima qilish kerak?

Ixtiro sifatida berilgan obyekt, agar u yangi, ixtirolik darajasiga ega va uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsa, talabnomada intellektual mulk agentligi tomonidan ro'yxatga olinadi va huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi. Buning

# SANOATNING YANGI SAHIFASI



Hozir yiliga 60 million tonna ma'danni qayta ishlovchi 4-mis boyitish fabrikasini qurish loyihasini ham boshlab yuborganmiz. Buning natijasida 2028-yilga borib, jami qayta ishlanadigan ma'dan hajmi bugungi 40 million tonnadan 160 million tonnaga yetkaziladi yoki 4 karra oshadi. Eng muhimi, minglab yangi ish o'rni yaratiladi.

Bugungi kunda 3-mis boyitish fabrikasida ishlab chiqariladigan 1 million tonnagacha mis konsentratini qayta ishlash uchun yangi metallurgiya majmuasini qurish loyihasi ustida ishlanmoqda. Majmuu uchun eng zamonaviy Flash Smelting-Flash Converting texnologiyasi tanlab olindi. Bu texnologiya konsentratdan 98,4 foiz misni ajratib olish imkonini beradi. Yana bir muhim jihati, texnologik jarayon to'liq yopiq bo'lib, atrof-muhitga mutlaqo zararsiz va 99,7 foiz zararli gazlar ushlab qolinadi.

Hozir yiliga 60 million tonna ma'danni qayta ishlovchi 4-mis boyitish fabrikasini qurish loyihasini ham boshlab yuborganmiz. Buning natijasida 2028-yilga borib, jami qayta ishlanadigan ma'dan hajmi bugungi 40 million tonnadan 160 million tonnaga yetkaziladi yoki 4 karra oshadi. Eng muhimi, minglab yangi ish o'rni yaratiladi.



to'g'risidagi ma'lumotlar Xitoy kompaniyalari vakillarida katta qiziqish uyg'otdi. Majjud imkoniyatlarimiz hamkorlik qilish manfaatli ekanini yana bir marta tasdiqladi.

V2V formatidagi muzokaralar davomida qator kompaniyalar bilan misni chiqarish qayta ishlash va eksport mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlik bitimlari, memorandumlarni imzolandi. Ohangoron tumanidagi "Mis klasteri" industrial zonasiga berilgan imtiyozlar Chin yurti kompaniyalari vakillarini qiziqitirib qo'ydi. Hozir ushbu hududda 2 ta qo'shma korxonaga negizda tog'-kon texnikasiga ehtiyot qismlar va akkumulyator batareyalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish choralari ko'rilmoqda.

Yurtimizdagi nodir metallar va kritik mineralar qazib olish hamda qayta ishlashni ko'paytirish maqsadida O'zbekiston texnologik metallar kombinati tashkil etildi. Shu bois, noyob metallar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab turgan Xitoy kompaniyalarini muhim mineralarni ajratib olish loyihalariga jalb qilish o'rganib chiqilmoqda. Nurlikon lityi slyudalari ma'danidan lityi olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, Toshqozgan konida grafitni boyitish loyihalari shular sirasidan. Sariqko'l sheyelit koni asosida kon-qayta ishlash majmuasini qurish va yuqori sifatli volfram konsentratini ishlab chiqarish loyihasi ham istiqbolli hisoblanadi.

Bundan tashqari, tantal-niobyi, titan-magneti-vanadiy kabi ma'danlarni qayta ishlashga samarali texnologiyalarni jalb qilish

rejamizda bor. Pirovardida bu ishlar nafaqat mis, balki yuqori qo'shilgan qiymatli turli eksport mahsulotlar ishlab chiqarishdan salmoqli foyda olish, yangi ish o'rini yaratish hamda mamlakat milliy iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

### Raqamlashtirish — davr talabi

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida "Raqqamli OKMK — 2030" konsepsiyasi qabul qilingan. Unga muvofiq, biznes va texnologik jarayonlarni boshqarish, transport-logistika tizimi bosqich-bosqich raqqamlashtirilmoqda. Masalan, hujjatlar aylanmasi, iqtisodiyot-moliya, buxgalteriya yo'nalishi uchun ID va 1S tizimlari joriy qilingan. Birgina ushbu yilda mazkur yo'nalishda 20 dan ziyod loyiha amalga oshirilib belgilangan edi, amalda ularning bir nechasi qo'llanilmoqda. Jumladan, mis eritish zavodi va 2-mis boyitish fabrikasining memosxemalari to'liq yangi SCADA tizimiga o'tkazilib, texnologik ma'lumotlarni onlayn tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Fabrika bunkerlarida ma'dan darajasi lazer datchiklar, temir yo'l vagonlari datchiklar orqali onlayn nazorat qilinadi. 1S:ERP (Performance) axborot tizimi takomillashtirilib, ishlab barqarorligi 3 barobar oshirildi.

Yangi barpo etilgan muhandislar maktabida avtomatlashtirish sohasi mutaxassislarini o'qitish bo'yicha elektron o'quv dastur va qo'llanmalar ishlab chiqilib, dasturchilar Siemens va

AVEVA (Schneider Electric) avtomatlashtirish tizimlarida ishlagan o'qitilmog'ga.

Qalmoqgir va Yoshlik I konlarida kon-transport boshqaruvi tizimi joriy qilinmoqda. Bunda 102 ta avtosamosval,

36 ta ekskavator, 20 ta burg'ilash texnikasi, 207 ta yordamchi texnika maxsus texnik apparat vositalari, ya'ni planshet, GPS/Glonass trekkerlari va sensorlar bilan jihozlanib, ma'lumotlarni onlayn shaklda jamlash va qayta ishlash yo'lga qo'yilmoqda.

Konlarda marksheyderlik ishlarni yuqori aniqlikda amalga oshirish uchun 2 ta uchuvchisiz uchish qurilmasi ishga tushirildi hamda ulardan foydalanish bo'yicha mutaxassislar malakasini oshirildi. Shuning o'zi tog'-kon jinrlarini tashish hajmini 10 foizgacha oshirish imkonini beradi.

Ma'dan boyitishda ko'p miqdorda texnik suv talab qilinadi. Shu bois, mis boyitish fabrikasida ma'dan-suv nisbatlarini avtomat tarzda boshqarish uchun 15 ta nazorat va o'lchov javoni hamda 200 dan ziyod nazorat-o'lchov asbobi o'rnatildi. Ushbu loyihamiz hisobiga yiliga 1,8 million kub metr suv tejaladi.

### Kadrlar — kelajagimiz

Prezidentimiz raisligida joriy yil 20-iyun kuni muhandislik sohasida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida sohamiz uchun dolzarb masalalar ko'tarilgan edi. Shu bois, xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda muhandis va ishchi-xodimlarning malakasini oshirish tizimini qayta ko'rib chiqildi. Chunki og'ir sanoatning rivojlanishi bevosita ham, bilvosita ham kadrlar salohiyatiga bog'liq. Bugungi kunda Olmaliq shahrida kombinat ehtiyotini qondirish uchun 2 ta oliy ta'lim muassasasi — Moskvaning "MISIS" va Toshkent davlat texnika universitetining Olmaliq filiali faoliyat ko'rsatmoqda. Ularni yiliga 1000 dan ziyod oliy ma'lumotli muhandis-kadr tamomlaydi. Bu biz uchun katta kadrlar zaxirasidir.

Bundan tashqari, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida muhandislik maktabi barpo etilgan. Maktab Germaniyaning Frayberg texnika universiteti Konchilik akademiyasi, "Auribus"

va "Gunter Papeburg" kompaniyalarining ta'lim metodologiyalari asosida ishlaydi.

Hozir bu yerda geologiya, konchilik ishi, kon sanoati transportlari, marksheyderlik ishi, foydali qazilmalarni boyitish, metallurgiya, mexanika, energetika, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish yo'nalishlari bo'yicha 150 nafar oliy ma'lumotli yosh mutaxassis tayyorlanmoqda.

Kombinat o'quv markazida 131 ta yo'nalish bo'yicha yiliga 10 mingdan ortiq ishchi va muhandis xodim malaka oshiradi. O'quv markazi va tarkibiy bo'limlarida 960 tinglovchiga mo'ljallangan 28 ta o'quv hamda 5 ta kompyuter xonasi mavjud. Mutaxassislarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim va malakasini oshirish uchun 255 ta elektron videodarslikka asoslangan LMS elektron platformasi yaratilgan. 624 ishchi-xodimimiz respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda. 4 nafari esa xorijiy ta'lim muassasalarida doktoranturasida o'qiydi. Umuman, biz 26 ta oliy va 2 ta professional ta'lim muassasasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz.

Yoshlarimiz kelgusida kombinat va mamlakatimiz sanoati rivoji, iqtisodiyotimiz taraqqiyoti, muxtasar aytganda, el-yurt farovonligi uchun xizmat qilishiga ishonamiz.

### Mustaqillik inshootlari

Mehnat jamoamiz eng ulug' va eng aziz bayramni "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" shiori ostida katta tantana va ko'tarinki ruhda qarshi olib, barcha ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yorug' yuz bilan ado etmoqda. Shuning barobarida yangi obyektlarni ishga tushirish va ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash ishlari ham izchil yo'lga qo'yilgan.

Shu kunlarda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi Ingichka boyitish fabrikasining II navbati ishga tushirildi. 2022-yilda ushbu loyihaning 1-bosqichi ishga tushirilib, yiliga 100 tonna volfram konsentratini olish yo'lga qo'yilgan va 82 ta yangi ish o'rni yaratilgan edi. Buning natijasida 2023-yilda 5,7 milliard so'mlik 100 tonna volfram konsentratini olish, 1,8 million dollarlik qo'shimcha eksport bo'lib 27 tonna volfram shtabiklari tayyorlandi. Mahalliyatlarimiz dasturi doirasida volfram tarkibli 27,9 milliard so'mlik 36 tonna qattiq qotishmalik kompozit mahsulotlari ishlab chiqarilib, Navoiy kon-metallurgiya kombinati va "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatiga hamda OKMK tarkibiy bo'limlariga yetkazib berildi.

Fabrikang ikkinchi bosqichi ishga tushishi natijasida yiliga jami 285 tonna volfram konsentratini ishlab chiqariladi. Qo'shimcha mahsulot qiymati 16,24 milliard so'mni tashkil etadi. Loyiha tufayli 120 kishi ishli bo'ldi.

Shuningdek, investitsiya loyihasi doirasida Yoshlik I koni va uning kon-texnika majmuasini hamda Qalmoqgir konini tashqi elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida raqqamli transformator podstansiyasi qurildi. Podstansiyaning barcha metall konstruksiyalari va beton buyumlari mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan. Mazkur obyektimiz ham mustaqillik bayramiga to'yona sifatida ishga tushirildi.

Kombinatda ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani "Eltamg'ali" mahalla fuqarolar yig'indisi 80 o'rinni bolalar bog'chasi qayta ta'mirlab, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, ushbu mahalladagi 2 qavatli turar joy binosi to'liq ta'mirlandi, endilikda kam ta'minlangan 14 ta oila o'z xonadoniga ega bo'ldi. Kapital ta'mirlash ishlari yakunlanayotgan Olmaliq shahridagi "Daryocha" bolalar bog'chasi ham yangicha qiyofada bolajonlarga tuhfa etildi.

Mustaqilligimizning 33 yilligini har sohada ulkan afarlar bilan kutib olayotgan jonjon O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida mehnat qilish barchamiz uchun sharaftir.

# PATENTLANGAN MAHSULOT

## Nega hammasi ham davomli ishlab chiqilavermaydi?



### Shavkat HASANOV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

hisoblanadi. Boshqa kishida patentlashtirilgan bug'doy navlari urug'ini sotish yoki ko'paytirish huquqi yo'q.

Buning uchun ixtisoslashgan hududlarda urug'lik qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish bo'yicha talov e'lon qilinadi. Talovda, asosan,

xo'jalikning tuproq unumdorligi, suv ta'minoti, so'nggi uch yil ichida ekin maydoni kasalliklarga chalingani, zararkunandalar bilan zararlangani, begona o'tlar tarqalgani, talabgoring ma'lumoti va mutaxassisligi, qishloq xo'jaligi sohasidagi ish staji, mavjud qishloq xo'jaligi texnikasi hamda so'nggi uch yilda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining o'rta o'rtacha ko'rsatkichi inobatga olinadi.

Talovda g'olib chiqqan urug'chilik xo'jaligiga urug'lik uchun ekanlarni ekinlarni yuqori unumdor, mexanizmlar yordamida ishlov berishga qulay, suv bilan yaxshi ta'minlangan, sho'rnamagan va tekis dalalarda joylashtirish, almashlab ekish va agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish reja-jadvalini tuzib amalga oshirish, xo'jalikda urug'chilik bo'yicha agronom yoki agronom mutaxassis bo'lishini ta'minlash talablari qo'yiladi. Foydalanishga ruxsat etilgan kimyoviy preparatlar bilan qayta ishlangan urug'lik materiallarini ekish, urug'lik uchun ekilgan maydonlarni begona nav va o'simliklardan tozalash, kasallik keltiruvchi begona ekinlarni urug'lik maydonlar atrofiga ekmaslik hamda boshqa navlar bilan chatishishga yo'l qo'ymaslik zarur. Urug'lik paxta ekilgan maydonlarda urug'lik paxta hosili to'liq yig'ishtirib olingandan so'ng g'ozda defoliatsiyasi o'tkaziladi. Urug'lik paxta maydonlarida g'oz zaning har tupida o'rta to'rt navlarda 3-8-hosil shoxlarini 1-2-o'rindan, ingichka to'li navlarda 3-13-hosil shoxlarini to'liq pishib otlar ko'saklaridan g'ol bilan

terish, mashinalar yordamida ko'saklar 60-65 foiz ochilganida terish kerak. Bundan tashqari, urug'lik uchun ekilgan boshqoqli don ekinlari maydonlari urug'lik don o'rish uchun ajratilgan kombaynlarda o'rinish, urug'lik donni maxsus ajratilgan avtomashina bilan tashish, yig'ishtirib olingan qishloq xo'jaligi ekinlari urug'liklarni avlodlari bo'yicha ishlab chiqilgan davlat standartlariga muvofiq yig'ib qabul qiluvchi korxonalariga topshirish kabi talablar ham mavjud.

Albatta, buning uchun munosib haq to'lanadi. Prezidentimizning 2020-yil 6-martdagi "G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"dagi qaroriga muvofiq, original boshqoqli don urug'lik uchun 200 foiz, elita uchun 100 foiz va I-avlod (R-1) uchun 65 foiz miqdorida ustama hisoblanadi.

Biroq hamma ishlanma ham ishlab chiqilganidan keyin davomli bo'lib ketmaydi. Nima uchun? Sababi, ishlanma bugunning talabiga javob bermasligi yoki unga ehtiyot yo'qligi, ishlab chiqaruvchilar uchun qimmatlik qilishi mumkin. Masalan, mexanizatorlik sohada ko'pgina texnika vositalari patentlashtirilgan. Ularni ommaviy seriyali ishlab chiqarish uchun olimning mablag'i

yetmaydi. Buning uchun olim traktor zavodi bilan ishlashi kerak.

Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidagi nizomning tegishli bandiga muvofiq, fan va texnologiyalarni rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ijtimoiy sohalar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan kamida uchta ixtiro yoki seleksiya yutug'i (patent) muallifiga fan doktori (DSc) ilmiy darajasi hamda uchtagacha ixtiro yoki seleksiya yutug'i muallifiga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi dissertatsiya himoyasiz istisno tariqasida berilishi amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu esa ilmiy tadqiqot ishlari olib borayotgan va ixtirochi izlanuvchilarning ilmiy darajalar olishi uchun bir qulaylikdir.

Bugungi kunda institutimiz olimlarida o'ndan ziyod ixtiro yoki seleksiya yutug'i uchun patent mavjud. Yangi ekin turlari hamda qishloq xo'jaligida resurs tejamoq texnologiyalar uchun ixtiroga patent olish uchun arizalar topshirilgan. Patent mualliflari o'z ixtirolarini ommalashtirish va muntazam rivojlantirish ustida amaliy ishlar qilgani. Institut tomonidan olimlarning patent olingandan keyingi faoliyatiga amaliy yordam berilmoqda. Maqsadimiz — qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shish.



# MILLATNI UYG'OTISH — UYG'ONGANLARNING VAZIFASI

## Tashabbuslar qanotida

**Otabek HASANOV,**  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori

Hozir taraqqiyot asrida davrning sur'ati tez, zamonning zayli o'zgaruvchan. Kecha ko'rganimiz bugun urfdan qolmoqda, kecha aytganlarimiz bugun uchun ertakka aylanmoqda. Bu jarayon hayotimizni yangilash bilan birga har daqiqada xatarlar xavfini ham oshirmoqda. Bunday tahlikalar ichida faqat milliy davlatchilikning mustahkam asoslariga tayanagan taraqqiyotga barcha dovonlardan oshib o'tishi mumkin.

Bugun taraqqiyotning yangi bosqichini egallayotgan mamlakatimiz o'z ichki va tashqi siyosatini birlashtirish, manfaatlar musharakligini, ochiqlik, pragmatizm, konstruktivlik asosiga qurmoqda. Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan olib borilgan proaktiv muloqot tayoqlari mintaqaviy siyosatning yangi davri, mustahkam asosini tashkil qiladi.

Natijada yangi O'zbekiston dunyoda tanilishi va tan olinishi borasida yetakchi davlatlar qatoridan o'rin olmoqda. Buni shunchaki raqamlar yoki faktlarda emas, ko'z o'ngimizda, real hayotimizda kunda-kunora ko'rib turibmiz. Avvalo, Prezidentimizning uzoqni ko'zlab, yangi tashqi siyosat doktrinasi shakllantirgani sabab yaqin qo'shni bilan munosabatlarni yangi bosqichga chiqdi, qarodoshlik rishtalari yanada mustahkamlandi. Bu nafaqat mamlakatimizning, balki Markaziy Osiyoning yangi taraqqiyot yo'lga ham sabab bo'ldi. Masalan, oxirgi 7 yilda mintaqaviy iqtisodiyoti 6,3 foiz o'sib, uning hajmi 450 milliard dollarga yaqinlashgan bo'lsa, suv, suv-energetika va ekologiya borasida ham katta yutuqlarga erishildi.

Yaqinda Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi maslahat uchrashuvi barqarorlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyot hududini bir bo'lib barpo etishga qaratilgan muhim tashabbuslar bilan jahon jamoatchiligi e'tiborini tortdi. Xususan, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyoda preventativ diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Xaxa Imnadze, Xadson instituti (AQSH) eksperti Richard Vayts, Shanxaydagi Fudan universiteti professori Chjao Xuanen kabi siyosiy ekspertlar mintaqamizda hamkorlikning noyob modeli yaratilayotgani, bunda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbus va siyosiy irodasi alohida e'tiborga molik ekanini e'tirof etdi.

Ayni shu voqealar bilan birga sportchilarning Olimpiada o'yinlaridagi g'alabasi yangi tarix bo'ldi. Bu yangi O'zbekiston o'z oldiga qanday katta marralarni qo'yib, shu yo'lga dadil ketayotganini ko'rsatib berdi. Jumladan, nufuzli Finansial Times gazetasida mamlakatlarimizning Olimpiadada olgan medallari va o'rinlari nafaqat sport sohasi, balki mamlakatlarimiz olib borilayotgan keng qamrovli rivojlanish yo'lidagi sa'y-harakatlar haqida juda chuqur xulosalar chiqarishga asos bo'ldi deb yozi.

Yana bir muhim voqea Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bo'ldi. Qoraqalpog'istonda yurimimizning barcha hududlaridan 300 ga yaqin tadbirkor va investor to'plandi. Shuningdek, muloqotda xorijda biznesini yo'lga qo'ygan yana 40 dan ziyod vatandoshlarimiz ishtirok etdi. Huddudiy studiyalardan 3 mingga yaqin biznes vakillari qatnashdi. Bugungi tahlikali va murakkab zamonga qaraganda, iqtisodiyotimiz barqaror o'sib borayotgani, dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar yetakchilari bilan e'tirof qilayotgani qayd etildi. Raqamlar oshgan, manfaatli bitimlar tuzilgan, yangi korxonayuv zavodlar ochilgan, muhimi, tadbirkorlar degan daromad emas, xalqqa manfaat fagan tushuncha, investorlarida ishonch degan eng muhim, qimmatli fikr paydo bo'lgan. Tadbirkor Prezidentini, davlatni o'ziga madadkor sifatida ko'ra boshlagan.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlarni yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Tadbirkorlik xalqqa madadi vatanparvarlik ekanini ko'p bora ta'kidlandi. Prezidentimiz Qoraqalpog'iston faollari, ziyolilari bilan ham uchrashib, hududni yanada rivojlantirish vazifalarini muhokama qildi. Uchrashuvda joriy yilda turkiy xalqlarning ulug' shoiri Ajniyozning 200 yillik yubileyini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Davlatimiz rahbari shoirning xalq uchun xizmat qilgan fidoyi zotlarni hazrat inson deb ataganini yodga oldi va barchani shunday ishlashga da'vat etdi. Shunday hazrat inson, uzoq yillar ta'lim, tarbiya sohasida ishlagan, haligacha ma'rifati

Hojilar — ma'naviyat targ'ibotchisi, degan ezgu g'oya asosida muqaddas arkonni bajarib kelgan 15 ming nafar yurtdoshimiz bilan hamkorlikda ishlash boshlandi. Bugun ular "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zozligiga qabul qilindi.



ulashishni umr mazmuni deb bilgan Bekdullo ota Prezidentimiz bilan muloqotda "Vatanparvarlik konsepsiyasi"ni ishlab chiqish taklifini bildirdi. Ziyolilarning maydonga chiqishi, millat manfaati, uyg'onish mas'uliyati yo'lida bildirayotgan bunday takliflari katta ahamiyatga ega, albatta.

### Ma'naviyat va iqtisodiyot qo'shqanot

Yangi O'zbekistonni tashqi va ichki siyosatda ezgu fikr hamda tashabbuslar, birlashish g'oyasi yangi kuchga aylantirmoqda. Bundan tashqari, ma'naviy yuksalish yo'lida ko'plab tashabbuslar, imkoniyatlar yaratilmoqda. 2023-yilning 22-dekabr kuni davlatimiz rahbari tomonidan o'tkazilgan Ma'naviyat va ma'rifati markazi tashabbusi, millat mas'uliyatini anglatgan uchrashuv bo'ldi. Unda yana bir bor dunyoda "kuch, bosim siyosiy qarashlarda transformatsiya jarayoni tezlashgani, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar ortayotgani aytiladi. Bunday tahlikalar, tahdidlar kuchaygan vaziyatda faqatgina millat fidoyilari — uyg'oq qalbli ziyolilar jasorat bilan maydonga chiqqani esga olindi.

Tan olish kerak, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyot yo'lida ulkan ishlar qilinadi. Natijada O'zbekiston kambag'allik darajasini 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizga kamaytirdi, 1,6 millionga yaqin odam kambag'allikdan chiqdi. 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda jami ish bilan band bo'lgan aholi soni 312 ming kishiga yoki o'tgan yilga nisbatan 2,3 foizga oshdi. Bu erishilgan marralar yana kun sayin umidbaxsh raqamlar bilan o'zgarib bormoqda. Biroq Prezidentimiz aytganidek, iqtisodiyot va ma'naviyat qo'shqanot bo'lsagina, buyuk maqsadlarga tezroq erishamiz.

Shu sabab ta'lim va tarbiya, ma'naviyat biz uchun ustuvor masala ekanini bot-bot ta'kidlanmoqda. Ayni paytda bugun jiddi bobolarimiz kabi g'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havoddek zarurligi va ularni o'zimiz tarix saboqlari, zamon talablari asosida tarbiyalashimiz kerakligi aytilmoqda.

### Uyg'onganlar birlashsa, jamiyat nurga to'ladi!

Millat ma'rifati, xalq ma'naviyatini yuksaltirish mas'uliyatini o'ziga olish — saodatli ish, jasoratli qadam. Millat yetakchisi bilan yetiladosh bo'lish, buyuk maqsad yo'lida birlashish uyg'oq qalbli ziyolilarning vazifasidir. Cho'ngan kuyib-yonib, "Millatni uyg'otish — uyg'onganlarning vazifasi", dedi. Ibrat domla ulamo g'ayrat etganda millat, albatta, islohi topishini ta'kidladi, Fitrat, Avloniy, Behbudiy ham ziyolilar mas'uliyatini etishtirishdan aslo charchamadi. Chunki ular ilm-ma'rifati nuri, agar ular yonmasa, millat yorug' yo'lni topolmay qolishiga ko'p bora tarix guvoh, voqealar dalil bo'la oladi.

Shu sabab Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi, avvalo, barcha ziyolilarni bir joyga jam qilish, ularga zamonaviy media-maydonga minbar yaratish, birlashib katta kuchimiz, degan da'vat bilan ish boshladi. Albatta, bu jarayonda doim millat oydinlari bilan maslahat qilinmoqda. Bu yo'lida tizimli ravishda viloyatlarda, tadqiqot institutlarida olimlar, ijodkorlar, diniy soha vakillari bilan tez-tez ko'rishib, ularning muammolari bilan tanishildi, bir maqsad yo'lida birlashish borasida takliflar berildi.

Fanlar akademiyasi Tarix institutida tarixchi olimlar, Yozuvchilar uyushmasida ijodkor-ziyolilar bilan birgalikda milliy g'urur makonini yaratish bo'yicha qator loyihalar boshlandi. Ziyolilarga bir platforma, bir minbar yaratish maqsadida markaz huzurida raqamli targ'ibot laboratoriyasi hamda interaktiv mediastudiyasi ochildi.

Olimlar va ijodkorlar bilan birgalikda millatni uyg'otish, xalqimizning milliy g'ururini yuksaltirish va vatanparvarlik ruhini oshirishga qaratilgan zamonaviy raqamli targ'ibot texnologiyalari, interaktiv media mahsulotlari, videodarslar, metodik qo'llanmalar, podkastlar, mualliflik ko'rsatuvlari, audio va videoroliklar

tayyorlash bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Ma'naviyat targ'ibot ishlari ko'lamini va mazmunini oshirish bo'yicha Bosh prokuratura, Mudofaa vazirligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Milliy gvardiya, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Kinematografiya agentligi va bir qator telekanallar bilan markaz o'rtasida hamkorlik kelishuvlari imzolandi.

Hojilar — ma'naviyat targ'ibotchisi, degan ezgu g'oya asosida muqaddas arkonni bajarib kelgan 15 ming nafar yurtdoshimiz bilan hamkorlikda ishlash boshlandi. Bugun ular "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zozligiga qabul qilindi. "Yangi O'zbekiston fidoyisi" targ'ibot guruhlari tashkil etilmogda. Ular uchun "Yangi O'zbekistonning fidoyisi bo'lib, ma'naviyat targ'ibotchisiga aylanamiz!" nomli ilmiy-uslubiy qo'llanma va yo'riqnomalar tayyorlandi.

### Tarbiya aniq metodikaga tayanadi

Alisher Navoiyning bir hikmatnoma gapi bor: "Yo'lni bilmay yurib bo'lmas". Har sohada taraqqiyotga yetish uchun uning yo'lini, usulini topib olish lozim. Oila — mahalla — maktabgacha ta'lim — maktab davrida tarbiya bilan shug'ullanamiz, natijasini ko'rishni istaymiz. Lekin natija aniq metodik yo'riqnomalar, ilmiy tahlillarga bog'liq, shu orqali tizimli ishlash mumkin.

1905-yili yozilgan Turkiston mustamlakasi to'g'risidagi hisobotda bir qator xulosalar ichida "Turkistonning yosh avlodini o'zimiz tarbiyalamog'imiz kerak!" degan qaror ham bo'lgan. Nega? Chunki yosh avlod ongiga, qalbiga berilgan tarbiya etarga shu mamlakat kelajagiga daxl qiladi, taraqqiyotini, milliy manfaatini belgilaydi. Shundan kelib chiqib,



hamkorlik memorandumida hamda qo'shma qaror tasdiqlandi.

Uychi tumanidagi 56 ta mahallada tajribasino'v asosida mahalla targ'ibotchilari faoliyati yo'lga qo'yildi. Mahallalarda ma'naviyat rifyi ishlarni tizimli tashkil etish borasida respublika o'quv-seminari o'tkazilmogda. Mahalla targ'ibotchilari uchun "Mahallada ma'naviyat rifyi ishlarni tizimli tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma" chop etildi.

### Ma'naviyat sektori — jamiyat mayog'i

Yangi O'zbekistonda inson qadriini ulug'lash, xalq manfaatini o'ylash, jamiyatda

ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini ishlab chiqish maqsad qilingan. Ungacha esa sohada mavjud muammo va kamchiliklar tizimli o'rganiladi. Aholi orasida birdamlik, daxldorlik tuyg'ularini qaror toptirishga qaratilgan amaliy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun alohida reja-jadval asosida o'rganishlar o'tkazilmogda. Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha hududlardagi Ma'naviyat va ma'rifati kengashlarida tanqidiy-tahliliy muhokamalar tashkil etilmogda. Markaz tomonidan uslubiy-amaliy yordam ko'rsatilib, kelgusidagi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqilishi nazarda tutilmogda.

### Yangi tarix berayotgan muhim vazifa

Tarix guvohi, xalqlar birlashmagan, insoniylik uzoqlashgan davrda taraqqiyotlar "ko'milgan", millatlar parokanda bo'lgan. Demak, faqat va faqat birlik, hamjihatlik xalqni xalq, millatni millat, vatanni vatan qiladi.

Bugun birlashish mas'uliyatimizni anglash, bir maqsad yo'lida harakatlanishimiz zarur. Bu bizga yangi tarix berayotgan muhim missiyadir. Uning mazmuni-mohiyatini yurtdoshlarimizga yetkazish, xalq bilan hamnafas bo'lish, subhatlashish, ruhini ko'tarish maqsadida mamlakatimiz bo'yab "Ma'naviyat festivali" tadbirlari tashkil etilmogda. Tadbirlar doirasida e'tiborimizni eng chekka tumanlarga borishga qaratmoqdamiz. Festival tadbirlari 173 ta tuman (shahardagi 555 ta chekka mahalla va ovullarda "Ma'rifat soati", "Kelajak liderlari uchrashuvi", "Uch avlod uchrashuvi", "Inson qadri", "Mehrxo'ra va muruvvat", "Kitob karvoni", "Ziyolilar forumi", "Kinokarvon", "Milliy qadriyatlar", "Oila — ma'naviyat qo'rg'oni", "Ma'rifati oila", "Eng namunali ma'naviyatli mahalla", "Vatan madhi" kabi loyihalar, ma'naviyat-ma'rifiy tadbirlar va gala-konsert dasturlari asosida o'tkazilmogda.

Jumladan, O'zbekiston Kasaba uyushmalari saroyida "Jadidlar orzu" nomli teatrlashtirilgan badiiy-ma'rifiy kecha o'tkazilib, unda birinchi o'zbek dramaturgi Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush", ma'rifatparvar shoir Abdulla Avloniyning "Siz va biz", milliy uyg'onish harakati namoyandasi Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari asosida sahnalashtirilgan pyesalar va "Qush esdaligi" filmidan parchalar namoyish qilindi.

### Zamondan oldinda yuradigan davrda yashayapmiz

Prezidentimiz bugun ma'naviyat boshqa sohalaridan o'n qadam oldinda yurishi kerakligini, ma'naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylinishi shartligini ta'kidlagan.

Qachon oldingi safga o'tish, kimdir o'ylab turganda bajarishni boshlash mumkin? Qachonki harakatlar tahlillarga, ilmiy asosga qurilsa, bo'lgan emasi, bo'ladigan voqealar muhokama qilinsa, muhimi, milliy manfaatlar asrab qolinsa, soha o'n qadam oldinga chiqib oladi.

Aholining turli qatlamli bilan ma'naviy tarbiya ishlarni tizimli tashkil etish maqsadida 3 ta yosh toifasi — "X" (katta yosh), "Y" (o'rta yosh) va "Z" (kichik yosh) avlod vakillari o'rtasidagi mavjud vaziyat tahlil qilindi. "Z" — bugungi voyaga yetayotgan raqamli avlod vakillari. Ular 73 foiz vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflaydi. Har qanday axborotni raqamli ko'rinshda oladi. Kunda bor-yo'g'i 2 foiz vaqtini kitob mutolaasiga ajratadi.

Markaz faoliyatini mana shu yoshdagi raqamli avlod vakillari bilan tizimli ishlashga qaratib, bo'yicha alohida targ'ibotning zamonaviy texnologiyalari joriy etilmogda. Xususan, "Buyuk sarkardalar", "Allomalarimiz haqida 10 fakt" loyihalari amalga oshirilmoqda. Bunda tarixiy shaxslarimiz, buyuk ajdodlarimizning amalga oshirgan ishlari, qadriyatlarini sun'iy intellekt yordamida

sahnalashtirilib, yoshlarga qiziqarli usulda yetkazilmogda.

Markaz va hududlarning rasmiy ijtimoiy tarmoqlardagi umumiy a'zolari soni 850 ming nafarga yetdi. "Oyina.uz" portali va ijtimoiy tarmoqlariga vatanparvarlik, ma'naviy tarbiya va milliy qadriyatlariga oid 30 ming 809 ta media targ'ibot vositalari joylashtirildi.

Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi delegatsiyasining Yaponiya, Xitoy davlatlariga ilmiy xizmat safari tashkil etildi.

Ushbu ilmiy safarlar bo'yicha mamlakatimizda milliy g'oya, mafkura, axloqiy, vatanparvarlik, tarbiya va ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash borasida taklif va loyihalar ishlab chiqildi.

### Har bir serial — bir missiya

Kino shunday san'atki, u ruhni, qalbn, ongni tarbiyalaydi, g'oya bo'lib yo'l ko'rsatadi, harakatlantiradi. Kengash yig'ilishida davlatimiz rahbari bejiz milliy seriallar ishlab chiqarish bo'yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish kechiktirib bo'lmas vazifa ekanini ta'kidlamadi.

Bu yo'lida Kinematografiya agentligi bilan bir qator hamkorlik ishlarni o'z ichiga olgan memorandum imzoladik. Avvalo, milliy serial millat yuzi, o'zlikning aksi, qadriyatlar ovozigga aylinishi lozim. Shu bilan birga, g'oyaviy-badiiy jihatdan muqammal, bugungi voqealar rivojidan ortda qolmasligi shart. Shu maqsadda "Har bir serial — bir missiya" tanlovi o'tkazildi. Tanlov doirasida ekspertlar kengashi 11 ta serial loyihasi bilan tanishdi va ular ichidan 4 tasini g'olib deb topdi.

Bular "Mening yurtim", "Renessans TV", "Sevimli" telekanallarida praym-taym vaqtlarida beriladigan bo'ldi.

"Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" shiori ostida esa mahallalarda "Kinokarvon" loyihasi yo'lga qo'yildi.

### Vatanni sevmoklik imtihondir bu!

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning shu she'riy satrlarini tez-tez yodga olaman. Vatan har birimizni beminant, manfaatli va ta'masiz sevadi. Biz-chi? Aslida, har qadamimizda Vatan muhabbati bizni imtihon qiladi. Oddiy hayotimizda o'z ishimizni siddiqildan bajarsak, atrofga befarq qaramasak, yutuqlarimizdan quvonib, kamchiliklarimizni tuzatsak, oilamiz, mahalla, Vatanni sevsak, bu imtihondan aslo yiqilmaymiz.

Buning uchun barcha uyg'oq qalb bilan yashashi, millat mas'uliyatini anglashi, erta uchun bugun harakat qilish lozim. Bu yo'lida ma'naviyat-ma'rifiy ishda tanaffus, to'xtash bo'lmasligi shart. Shu sabab faoliyatimizni doimiy tahlil qilib, amalga oshiradigan ishlarimiz rejasini tuzib bormoqdamiz. Hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar juda ko'p.

Oila — mahalla — maktabgacha ta'lim — maktab tizimida tarbiya ishlarni jonlantirish, zamonga mos, davrga monand tarzda yangi metodik qo'llanmalar chiqarishni reja qilganmiz. Hozir bunga mas'ul bo'lganlar bilan davomli tarzda seminar-treninglar tashkil qilib kelmogdamiz. Keyingi bosqichda har bir tarbiyachi qo'lga zamonaviy, interaktiv videodarslar yetkaziladi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'limdagi bolajonlarimiz uchun milliy, vatanparvarlik ruhidagi she'riy kitobchalar, etraklar, buyuk sarkardalar va bobolarimizning yoshligi yozilgan hikoyalari qiziqarli suratlar bilan chop etilib, tarqatiladi.

Oldimizga ma'naviyat yangi kuch, yangi harakat, iqtisodiyotning qo'shqanoti, jamiyat ruhi, davr ovozigga aylinishi shart, degan vazifa qo'yilgan. Buni faqat va faqat ziyolilar bir yuqadon bosh chiqarib, bir mustoh bo'lib harakat qiladigan, amalga oshira oladi. Shunda biz bir bo'lib — yagona xalq, birlashib — Vatanga aylanamiz.

Innovatsion yondashuvlar

# ENDI DORIXONALARDA “MAQOM KAPSULASI” HAM BO‘LADI

## Mamlakatimizda musiqa terapiyasi sari yana bir qadam qo‘yildi

Munojat MO‘MINOVA, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Samarqanddagi “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali doirasida tashkil etilgan ilmiy-amaliy anjumanda Madaniyat vazirligi tomonidan konferensiya ishtirokchilariga kutilmagan sovg‘a — “Maqom kapsulasi” topshirildi. Bu, aslida, oddiy sovg‘a emas, xalqimiz madaniyati, san‘ati va ayni paytda sog‘liqni saqlash tizimidagi eng katta yutuqlardan biridir.



Xo‘sh, “Maqom kapsulasi” nima? U kimlar tomonidan yaratildi? Maqomga nisbatan ham kapsula so‘zini ishlatish to‘g‘rivi kabi savollarga javob topish uchun mas‘ullarga yuzlandik. “Maqom kapsulasi”ning ahamiyati, nega u sog‘liqni saqlash bilan bog‘lanayotganiga oydinlik kiritdik.

Professor-o‘qituvchilar bilan birga “Maqom kapsulasi”ni ishlab chiqdik, — deydi Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti rektori vazifasini bajaruvchi Eldor Shermonov. — Bu juda murakkab jarayon, albatta. Shuning uchun uzoq vaqt talab qildi. Biroq ilmiy konferensiyaga yangilik bilan kelishga erishdik. Xuddi dori ko‘rinishida qadoqlangan xotira qurilmasi (fleshka)ga 22 ta milliy maqomlarimizni jamladik. Albatta, har bir maqom chuqur o‘rganilib, unga ta‘rif berildi. Bu qo‘shiqamni eshitish vaqti bor. Qaysidir birini erta tongda, ayrimlarini tushdan so‘ng eshitish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, har bir qo‘shiqning inson ongiga ta‘sirini ham aniqladik. Ijro uslubiga qarab, ba‘zilari faqat IQ darajasini o‘stiradi. Tafakkurni rivojlantiradigan maqomlar bor. Ba‘zilari yurak-qon tomirlarini me‘yorlashtiradi. Faqat buning uchun qaysi maqomni qanday paytda tinglashni bilish kerak. “Maqom kapsulasi” shunga xizmat qiladi. Kimdir noto‘g‘ri tushunishi mumkin. Biroq biz “Maqom kapsulasi”ni hatto dorixonalarda sotishni tavsiya etyapmiz. Nevropatolog shifokorlar ham bunga xayrixohlik bildirdi. Ular bosh bilan bog‘liq xastaligi bor insonlar kapsuladan foydalanishi maqsadga muvofiq ekanini aytdi.

Londondagi maxsus musiqa terapiya bilan shug‘ullanadigan ilmiy-tadqiqot institutiga 50 dan ortiq maqom yuborganmiz. Hozir ularning ekspertiza xulosasini kutaymiz. Agar ijobiy xulosa olsak, “Maqom kapsula”mizdan bemalol keng foydalanish mumkin bo‘ladi. Quvonarlisi, o‘zbek maqomlari, milliy kuy va qo‘shiqdagi har jahan durдона asarlari ro‘yxatiga kiritiladi. Afrika qit‘asidagi, Sharqiy Osiyoda bo‘ladimi, yoshlar yurakka, ongga ta‘sir etuvchi kuylarni eshitadi. Kapsuladagi 22 ta maqomni bir oy davomida tinglagan kishining IQ darajasi, albatta, rivojlanadi, xotirasi mustahkam bo‘ladi.

Bizni qiziqirgan yana bir jihat mumtoz asarlarimiz asosida yaratilgan “Maqom kapsulasi”ning qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomasi bor ekan bo‘ldi. Masalan, “Xushparda suvora” qo‘shig‘i tinglovchining asab tizimini yaxshilaydi, ruhiy xotirjamlik baxsh etadi. Stressni yengillashtirib, hissiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Uni tongda, uyqudan tugandan keyin tinglash tavsiya qilinadi. Yoki “Qo‘qon ushshog‘i” insonning yurak urishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Yurak-qon tomir tizimini me‘yorlashtiradi. Dam olishga yordam beradi. “To‘yona” esa tinglovchining diqqatini jamlaydi, xotirani yaxshilaydi va stressni davolash mumkin.



pasaytiradi, IQ darajasini oshirishga turki bo‘ladi. Uni tushda, hordiq chiqargandan keyin tinglash kerak. Ha, maqomlarimiz shifo, u emlash vazifasini ham bajaradi. Faqat uni to‘g‘ri vaqtda, ilmiy ko‘rsatma asosida eshitishni o‘rgansak bo‘ladi. Xalqaro konferensiyada aynan musiqa terapiyasi haqida ma‘ruza qilgan O‘zbekiston xalq artisti Munojat Yo‘lchiyeva 44 yillik ijodiy faoliyati davomida musiqa insonlar sog‘lig‘iga,

xarakteriga ta‘sir qilishga guvoh bo‘lgani haqida so‘zlab, shunday dedi:

— Bu haqda qadimdan olimlar, donishmandlar izlanishlar qilgan. Arastu, Afлотun, Pifagorning risolalarida qadimgi Hindiston, Xitoy qo‘lyozmalarida, Italiya va Germaniyadan aniqlangan eski topilmalarda bu borada bir qancha ma‘lumotlar keltirilgan. Masalan, Afлотun musiqa nafaqat insonning ruhiyati, balki xatti-harakatiga ham ta‘sir qilishini aytib o‘tgan. Sharq mutafakkirlari ham musiqa qatnashgan. Shu ma‘noda, inson ruhiyatiga musiqaning ta‘sir amaliyotida isbotlangan va bundan foydalanilgan. Demak, bugungi kunda ham insonni musiqa bilan davolash mumkin.

Konferensiyada ishtirok etganlar maqomlarimizning bunday yangicha uslubda taqdim etilayotgani yoshlar ma‘naviyati, o‘zlikni saqlashda ham qo‘l kelishini ta‘kidladik. Jumladan, O‘zbekiston xalq xofizi Hasan Rajabiyning aytishicha, maqomlarni, umuman, kuylarni eshitishni bilish kerak. Chunki salbiy ta‘sir qiladigan musiqalar ham bor. Odam umrini uzaytiradigan maqomlar tomir-tomiringizga kirib boradi. Ko‘zingizga yosh keladi. Qo‘shiqdan huzurlanganingizda miya faoliyati yaxshilanib, asab tizimi me‘yorlashadi.

“Maqom kapsulasi”ni qabul qilib olgan xorijlik mehmonlar uchin qanday kuchga ega ekanini qiziqish bilan o‘rganmoqda. Jumladan, Afrikaning Aloqa, madaniyat, san‘at va turizm vaziri, adabiyot fanlari nomzodi Parfait Ilboudo biz bilan suhbatda ilmiy konferensiyaga bejiz kelmaganini aytdi.

— Ushbu konferensiyada ko‘plab mamlakatlarning musiqalarini tinglashga muvaffaq bo‘ldim, — deydi Parfait Ilboudo. — Har bir davlatning musiqasi insonni o‘ziga jalb etadi. Lekin o‘zbek musiqasi menda juda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, “Maqom kapsula”si juda hayratlantirdi. Nasib qilsa, “Sharq taronalari”ning kelgusi tadbirlarida ham qatnashishni niyat qildim.

Ekspertlar fikricha, musiqa terapiyasi dunyoning ko‘p davlatlarida bor. Negaki musiqa boshqa sohalar rivojiga ham turki beradi. Ya‘ni insonning asab tizimiga ijobiy ta‘sir qilib, aqliy salohiyatini oshiradi. Inson ruhan sog‘lom, ko‘tarinki bo‘lsa, har qanday ishda unum bo‘ladi. Shu ma‘noda, “Maqom kapsulasi” stresslarni davolashda qo‘l keladi.

— “Maqom kapsulasi” aynan ilmiy-amaliy konferensiyamiz mavzusiga ham monand yangilik bo‘ldi, — deydi Ozodbek Nazarbekov. — Uni dori shaklida taqdim etib, insoniyatni qaysidir ma‘noda qadim kuylarimiz orqali ham madaniyatga qaytarish mumkinligini isbotlamoqchi bo‘ldik. Eng sara maqomlarni shu kapsulaga joyladik. Globallashuv zamonida buni bir emlash, desak ham bo‘ladi. Ayniqsa, hozirgi davrda bu juda muhim. Zero, san‘at — xalqlarni birlashtiradigan katta kuch.

Soha vakillari fikrlaridan kelib chiqib, umid qilamizki, “Maqom kapsulasi” qancha-qancha qalblarga shifo ulashib, sog‘lom ruhli, ma‘nan tetik yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.



# Mustaqilligimizning 33 YILLIGIGA INTERVYU

## AJDODLAR XOKI-LA MUKARRAM ZAMIN

Munira HAMROYEVA, “Tadbirkor ayol” xalqaro ishbiarmon ayollar assotsiatsiyasi Xatirchi tumani bo‘limi raisi



Xorijda o‘qiyotgan yoki mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz haqida gap ketsa, yuragim allanечuk bo‘ladi. Ayniqsa, ular ayol bo‘lsa, be‘tibor qarolmayman. Chunki musofirlik mashaqqatini yaxshi bilaman. Ha, vatandan olisda yashash oson emas. Kamiga moddiy qiyinchiliklar oldida o‘z qo‘lidan ayol farzandini tashlab, xorijda ishlashdan ortiq azob bo‘lmasa kerak. 2012-yilda turmush o‘rtog‘im bilan birga xorijga ishlashga ketdik. Og‘ir, qora ishlarni qilishga majbur bo‘ldik. Yaxshimi yo‘yomon, u kunlar ham o‘tdi. O‘sha musofirlikda yurib, bolalarimni, yaqinlarimni sog‘indim. Bildimki, inson vatandani olisda yashashi oson emas ekan. O‘shanda yurt sog‘inchi, vatan qadri haqida ko‘p o‘ylaganman. Inson nima uchun yurtini yaxshi ko‘radi? Kindik qoni to‘kilgani, ajdodlari xoki bilan shu tuproqni aziz qilgani uchun! Odamning ildizi vatandadi, u qanchalik johil yoki vatangizda bo‘lmasin, baribir yurt tuprog‘i, tomirlari uni o‘ziga tortib turadi. Faqat buni inson doim ham payqay olmaydi. Yurtimizdagi o‘zgarishlarni eshitgach,

tezda uyga qaytdik. Keyingi yillardagi katta islohot, imkoniyatlar sabab vatanga kelib ish boshladim. Go‘zallik saloni ochdim. Bir kuni hokimlikdan kelgan ayol ishlarimni ko‘rib, imtiyozli kreditlar borligi haqida aytdi. Mahalladan yig‘ilishga chaqirishdi, ishimi kengaytirishning yo‘l-yo‘rig‘ini o‘rgatishdi. Shundan so‘ng chinakamiga tadbirkorlikni boshladim. O‘shanda menga bo‘lgan kichik e‘tibor va moddiy ko‘mak hammasini — hayotimni o‘zgartirib yubordi. Ayni paytda “Xatirchi asl ipak gilamlari” MCHJ hamda “Durdona tekstil” ishlab chiqarish korxonalariga rahbarlik qilaman.

Birida gilam to‘qilsa, boshqasida kiyim-kechak tikiladi. Korxonamiz ko‘p tarmoqli bo‘lib, non va non mahsulotlari ham tayyorlanadi. Qo‘lda to‘qilgan gillamlarimiz yurtimiz bozorlaridan tashqari chet davlatlarda ham xaridorgir. Faoliyatim ortidan ko‘plab shogirdlar chiqardim, xotini-qizlarni ish bilan ta‘minlab kelyapman.

Bir ayol uchun oila tinchligi, xotirjamligidan ortiq baxt bo‘lmasa kerak. Bu baxtni sevimli ishi, uni qo‘llab-quvvatlashlari, rag‘bat berishlari yanada to‘ldirib turadi. Qachonlardir xorijga ketib, qora mehnat qilishga majbur bo‘lgan oddiy qishloq ayoli bugun o‘z yurtida qadr topishi aytishgagina oson. Aslida, bu juda katta o‘zgarish, islohotlar natijasi.

2020-yilda davlatimiz rahbari namunali tadbirkor sifatida faoliyatimni alohida e‘tirof etgani ham menga yanada kuch berdi. Shundan buyon nafaqat faoliyatimni kengaytirish, balki hududimizdagi xotini-qizlar bandligini ta‘minlash, tadbirkorligiga ko‘maklashishga intilib kelyapman. Har kuni ishdan shaxsiy avtomobilimda qaytayotib tinch, ravon ko‘chalarimizda Vatanimiz bayrog‘iga ko‘zim tushadi. Unga qarayman-u, bugungi yorug‘ va osuda kunlar uchun, bir ayol, ona sifatida o‘z yurtimda, oilam bag‘rida xotirjam hayot kechirayotganim uchun shukrona aytaman. Zamonaviy, tadbirkor ayol sifatida hech bir davlat xonimlaridan kam emasligimdan g‘ururlanaman. Bu qachonlardir xorijda qora mehnat qilib, ona yurtga qaytish orzusidagi bir oddiy ayolning xayoliga ham kelmagan kunlar, aslida.

Bir ayol uchun oila tinchligi, xotirjamligidan ortiq baxt bo‘lmasa kerak. Bu baxtni sevimli ishi, uni qo‘llab-quvvatlashlari, rag‘bat berishlari yanada to‘ldirib turadi. Qachonlardir xorijga ketib, qora mehnat qilishga majbur bo‘lgan oddiy qishloq ayoli bugun o‘z yurtida qadr topishi aytishgagina oson. Aslida, bu juda katta o‘zgarish, islohotlar natijasi.

# VATAN BIZGA OMONATDIR



Saidbek BOLTABOYEV, Turkiyadagi Karabuk davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Har bir joyning o‘ziga xos madaniy va tarixiy qadriyatlari bor. Ular urf-odatlar, til, e‘tiqod va turmush tarzi bilan chambarchas bog‘langan. Insonlar ana shu qadriyatlar bilan ulg‘ayadi. Ularni kelajak avlodlarga yetkazadi. Shu tariqa inson xarakteriga, madaniyatiga va qadriyatlariga tug‘ilib o‘sgan joyda shakllanadi. Ya‘ni ona yurt inson o‘zligini taniyadigan muqaddas zamin.

“Vatan — ajdodlar merosi” degan fikrga tez-tez duch kelamiz. Albatta, shu tuproq

uchun ularning qoni, peshana teri to‘kilgan. Natijada oddiy ko‘ringan tuproq Vatan degan muqaddas mavqega ko‘tarilgan. Ajdodlarning erishgan har qanday moddiy yoki ma‘naviy borlig‘i avlodlarga meros bo‘lib o‘tishi tabiiy.

Avlodlar ota-bobosidan qolgan har qanday boylik bilan g‘ururlanadi, merosxo‘r sifatida o‘zining foydali ulushini oladi. Biroq vatan avlodlarga meros bo‘lmasligi kerak. Chunki meros avlodning mulki bo‘lgani sabab ko‘ngli tusaganini qiladi, manfaatiga mos ravishda qo‘llay oladi.

E‘tiqod va qadriyatlarimizda omonat degan tushuncha bor. Bizga ishonib topshirilgan, omonat berilgan har qanday narsani yaxshi himoya qilmaslik, uni o‘z manfaatimiz uchun ishlatish va yo‘q qilish urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizga zid. Zero, omonatga xiyonatning javobi juda og‘ir.

Shu o‘rinda vatanni ajdodlardan bizga berilgan omonat desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Merosdan avlodlar o‘z manfaati yo‘lida foydalanishi mumkin bo‘lsa, omonatni ehtiyoj qiladi, ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylaydi. Vatan bizga ajdodlardan omonat sifatida keldi. O‘z navbatida, omonatga xiyonat qilmay, keyingi avlodlarga yetkazib berish — bizning burchimiz.

Har qanday qadriyatni o‘z manfaatimiz yo‘lida ishlatish emas, Vatan va unga bog‘liq til, adabiyot, ma‘naviyat, tarixiy asaru obidalar kabi uni yangilab, keyingi avlodlarga qulay qilib yetkazish asl burchimizdir. Bularning bariga bizga vaqtinchalik omonat berilgan narsalar

sifatida qarashimiz, yangilab, to‘g‘rilab boshimiz zarur.

Vatandan tashqarida yashab, uni qo‘msab-sog‘ina boshlaganimiz 15 yildan oshdi. Chet elda yashash insonning o‘z madaniyatiga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Bayramlar, urf-odatlar va toamlar kabi o‘rganib qolgan usurlarning yo‘qligi vatan sog‘inchini yanada sezdiradi. Xorijda istiqomat qiladigan shaxsning vatanga bo‘lgan muhabbati ko‘pincha uzoqlashish va turli madaniyatlar bilan tanishish natijasida chuqurlashadi. Ayniqsa, o‘z ona tilida so‘zlashish imkoniyatiga ega bo‘lish chet elda yashayotganlar uchun muhim hissiy ehtiyojdir. O‘z tilida fikr yuritish va so‘zlash o‘zi o‘z o‘z bo‘lgan millatga tegishli ekanini his qilish imkonini beradi. Shu ma‘noda, vatan va unga oid bo‘lgan har bir narsa xavfsiz boshpana, emin-erkin his qiladigan joy sifatida ko‘rinadi. Ana shu erkinlikni qo‘msash, sog‘inish vatanga bo‘lgan muhabbatdir.

Vatanim o‘zgacha! Uning har bir tosh-u giyohida ona tafti bor. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlarimiz, betakror me‘moriy obidalar, tabarruk qadamjolar, nodir tabiat go‘zalliklarini ko‘z oldimga keltirganimda yuragimda ajib his uyg‘onadi. Qadimiy kent va zamonaviy megapolis jihatlarini o‘zida jamlagan poytaxtimizning har bir ko‘chasida o‘zbekona mehri his qilaman. Xalqimizga xos bo‘lgan tinchliksevarlik va bag‘rikenglik vatanga timsol go‘yo. Mana, men nima uchun sevaman O‘zbekistonni!



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas‘ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2574. 41126 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Muxtasar Tojimatova Musahhih: Nasiba Abdullayeva Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29